

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ZUHRA UMAROVA

**BOSHLANG‘ICH SINFI
O‘QUVCHILARIDA PEDAGOGIK
KONFLIKTLARNI BARTARAF ETISH**

Monografiya

TOSHKENT
«ISHONCHLI HAMKOR»
2021

UO‘K 373.21

KBK 74.10

U 47

Umarova Zuhra

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish [Matn]: monografiya / Z. Umarova. –Toshkent: “ISHONCHLI HAMKOR”, 2021. – 100 b.

Mazkur monografiya bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va amaliy faoliyatdagi o‘qituvchilarga mo‘ljallangan bo‘lib, unda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning ko‘rinishlari, shakllari va turlari tahlil qilib berilgan, ularni bartaraf etishning texnologiyasi taqdim etilgan.

Mas‘ul muharrir:

Axmedova Mukarram Tursunaliyevna – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

Shukurullo Qo‘ldoshevich Mardonov – pedagogika fanlari doktori, professor

Mamanazar Irgashevich Djumayev – Nizomiy nomidagi TDPU professori, pedagogika fanlari nomzodi

Monografiya Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-7091-3-3

© Z. Umarova, 2021.

© “ISHONCHLI HAMKOR”, 2021.

MUNDARIJA

KIRISH	4
I BOB. BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA PEDAGOGIK KONFLIKTLARNI BARTARAF ETISHNING NAZARIY ASOSLARI	8
1.1. Konfliktologiyaning umumiy xususiyatlari	8
1.2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida pedagogik konfliktlar – muhim pedagogik muammo sifatida.....	17
1.3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasining nazariy masalalari	30
II. BOB. BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA PEDAGOGIK KONFLIKTLARNI BARTARAF ETISH TEXNOLOGIYASI.....	42
2.1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasini ishlab chiqish zaruriyati.....	42
2.2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasining didaktik imkoniyatlari.....	48
2.3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning texnologik omillari.....	57
III BOB. BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA PEDAGOGIK KONFLIKTLARNI BARTARAF ETISH SAMARADORLIGI	67
3.1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari dasturi.....	67
3.2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish tizimi	74
3.3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bo‘yicha tajriba-sinov natijalari.....	82
Umumiy xulosa	93
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	97

KIRISH

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida *Uchinchi Renessansni* barpo etish jarayoni boshlandi. Mamlakatimiz sivilizatsiyasi tarixida Birinchi Renessans IX-XII asrlarda, Ikkinchi Renessans XIV-XV asrlarda kechganligi ma'lum.¹ Uchinchi Renessans XX asrning I choragida jadid ma'rifatparvarlari tomonidan boshlangani va uni yangi O'zbekiston sharoitida barpo etish qabul qilindi.² Bu jarayonda boshlang'ich ta'limni rivojlantirish va uning vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama barkamol shaxslar sifatida voyaga yetkazish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-sonli "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida bu borada quyidagi vazifalar qo'yilgan: "boshlang'ich sinflarda fanlarni o'zaro uzviy bog'lanishi hisobiga ularni optimallashtirish; boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarining o'qitilishini kuchaytirish va boshlang'ich sinf o'quvchilarini savodxon, bilimli, malakali, ko'nikmali hamda hayotga tayyorgarlik ruhida tarbiyalash". Ushbu vazifalarni amalga oshirish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida (7-11 yoshli shaxslarda) uchraydigan *pedagogik konfliktlarni* aniqlash, ularning ko'rinishlari, shakllari va turlarini belgilash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi. Chunki bularning barchasi Uchinchi Renessansni barpo etish jarayonida boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning muhim faktorlaridan hisoblanadi.

Pedagogik konfliktlar-bu o'quvchi shaxsining ongi, faoliyatining shakllanishi va ta'lim-tarbiya olish jarayonidagi ziddiyatlar, nizolar va to'qnashuvlar majmui bo'lib,³ uning boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan ko'rinishlari, shakllari va turlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilar-da uchraydigan pedagogik konfliktlarni o'rganish, tadqiq etish va ular-

¹ Xayrullayev M.Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. –T.: "Fan".1971. Konrad N.Zapad i Vostok. –M.: "Nauka" 1993 va h.k.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan so'zlagan Murojaat nutqi.// "Yangi O'zbekiston" gazetasi 2020 yil 1 oktyabr soni.

³ Axmedova M.T.Pedagogik konfliktologiya. –T.:TDPU.2017.12-bet.

ni bartaraf etish texnologiyasini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi. Mazkur muammoning zaruriyati quyidagilar bilan belgilanadi: *birinchidan*, boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning nazariy asoslarini tahlil qilish; *ikkinchidan*, boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasini yaratish; *uchinchidan*, boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasini amaliyotda qo'llash metodikasini ishlab chiqish; *to'rtinchidan*, mazkur masala bo'yicha eng maqbul yondashuvlaridan biri kompyuter texnologiyasini shakllantirish; *beshinchidan*, tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan texnologiyani amaliyotga tatbiq etish asoslarini yaratish.

O'zbekistonlik pedagog olimlardan J.Yo'ldoshev, R.Jo'rayev, B.Abdullayeva, Sh.Mardonov, R.Mavlonova, U.Mahkamov, O.Musurmonova, R.Safarova, M.Quronov kabilarning tadqiqotlarida umumta'lim maktablari o'quvchilarini munosib tarbiyalash, ularga zamonaviy darajada ta'lim berish, o'quvchilarning ma'naviy, axloqiy va estetik ongini shakllantirish, o'quvchilarda uchraydigan noaxloqiy xatti-harakatlarni aniqlash, bartaraf etish hamda boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning nazariy, metodologik va ijtimoiy-amaliy asoslari tahlil qilib o'tilgan.

O'zbek pedagogik merosida Ahmad Yassaviyning (XII asr) hikmatlarida shaxsda kechadigan ichki ziddiyatlar, Alisher Navoiyning (XV) dostonlarida shaxs ongi va qalbidagi to'qnashuvlarni bartaraf etishning badiiy ko'lami, Boborahim Mashrabning (XVIII asr) she'rlarida shaxs va uning hayotida uchraydigan nizoli vaziyatlar hamda jadid ma'rifatparvarlarining (XX asr I choragi) asarlarida ta'lim oluvchilar duch keladigan ijtimoiy nizolar to'g'risida o'ziga xos tahlillar amalga oshirilgan. SHuningdek, pedagogikamiz tadqiqotchiligidagi kam o'rganilgan aziz-avliyolardan Najmiddin Kubroning (XII asr) asarlarida shaxs qalbi va ruhiyatidagi ziddiyatlar, Bahouddin Naqshbandning (XIV asr) qarashlarida inson kamolotiga to'siq bo'luvchi hayotiy ikkilanishlar va to'qnashuvlar, Xoja Ahror Valiyning (XV asr) asarlarida esa shaxs o'zligida yuzaga keladigan ixtiloflar va ularni bartaraf etishning vositalari to'g'risida muhim tavsiyalar berilgan.¹

Xorijlik XVII-XX asrlarda faoliyat yuritgan pedagog faylasuf va

¹ Mazkur mutafakkirlarning tegishli asarlari tadqiqotimizning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati"da keltirilgan.

olimlaridan Ya.Komenskiy, I.Pistalotsi, K.Ushinskiy, J.Dyui kabilarning asarlarida shaxs hayotida yuzaga keladigan ijtimoiy, axloqiy va ruhiy xarakterdagi konfliktlar o'ziga xos tarzda ko'rsatib o'tilgan.

Konfliktologiya hodisasi va uning nazariy masalalari XX asr II yarmidan boshlab G'arb olimlari tomonidan ilmiy tahlil etila boshlandi. Bunda konfliktologiyaning nazariy masalalari, uning guruhlar, xalqlar va davlatlar o'rtasidagi shakllarini belgilashga asosiy e'tibor qaratilgan.¹ Ayni paytda, XX asrning 70-yillaridan boshlab umumta'lim maktablari o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlar ko'rinishlari tadqiq etila boshlandi.² Bularning barchasi konfliktologiya va uning pedagogik turlarini idrok etish imkonini beradi.

O'zbek pedagogik ilmiy-tadqiqotchiligidagi ilk bor pedagogik konfliktlar masalasi umumiy nazariy jihatdan M.T.Axmedova tomonidan tahlil qilib berilgan.³ Pedagog olimi mazkur tadqiqotida pedagogik konfliktologiyaning predmeti, maqsadi, vazifalari, ilmiy asoslari, turlari, ularni oldini olishda muloqot madaniyati, bu jarayonda pedagogik-psixologik xizmat va birgalikda faoliyat omili masalalarini yoritib bergan.

Shuningdek, sotsiolog va siyosatshunos olimlardan R.Jumayev, B.O'tanov kabilar tomonidan konfliktologiya nazariyasi masalalari tadqiq etilgan.⁴

Ayni paytda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasi muammosi maxsus dissertatsiya tarzida tadqiq etilgan emas.

Monografiyaning maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlar muammosini o'rganish va ularni bartaraf etish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur monografiyada quyidagi vazifalar qo'yildi:

- konfliktologiya hodisasining umumiy xususiyatlarini tahlil qilish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik

¹ Qarang: Antsupov A., Shipilov A. Slovar konfliktologo. –M.,1995.

² Qarang:Afonkova V. Konflikty v kollektive starsheklassnikov i puti ix preodeleniya. Diss...kand...ped...nauk.-M.,1975. Krogus N.Lichnost' v konflikte. – Saratov.: SGU.1976 va h.k.

³ Axmedova M.T. Pedagogik konfliktologiya.-T.:TDPU. 2017.

⁴ Jumayev R.Z. Konfliktologiya asoslari:asosiy tushuncha va tamoyillar.-T.,2015. O'tanov B. Konfliktologiya. –T.,2013.

konfliktlarning muhim pedagogik muammo ekanligi, ularni bartaraf etishning nazariy asoslarini tatqiq etish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasini ishlab chiqish zaruriyatini asoslash;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasining didaktik imkoniyatlarini tahlil qilish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning Kompyuterli texnologiyasini ishlab chiqish;

- tadqiqot natijalari bo'yicha pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va ularning natijalari asosida metodik tavsiyalarni shakllantirish.

Monografiyada quyidagi natijalarga e'tibor qaratildi.

- pedagogik ilmiy-tadqiqotchilikda ilk bor boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning ko'rinishlari, shakllari va turlari o'rganildi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishni aniqlash yo'llari belgilandi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning Kompyuterli texnologiyasi yaratildi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning texnologiyalarini amalda qo'llash mexanizmlari ishlab chiqildi.

Monografiya kirish, uch bob, to'qqiz paragraf, xulosa va tavsiyalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA PEDAGOGIK KONFLIKTLARNI BARTARAF ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Konfliktologiyaning umumiy xususiyatlari

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida boshlang'ich ta'limni zamon talablari asosida rivojlantirish va uning vositasida o'quvchilarni barkamol qilib voyaga yetkazish muhim vazifalardan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Yangi tahrirdagi Qonunida (2020 yil 23 sentabr) boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasi sifatida o'quvchilarning savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirish belgilab qo'yilgan. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim va tarbiyasida pedagogik konfliktlarning salbiy ta'siri bo'lishi faraz qilinadi. Chunki pedagogik konfliktlar umumkonfliktologiya nazariyasining tarkibiy qismi bo'lib, unda asosan ta'lim va tarbiya jarayonidagi ziddiyatlar, nizolar va to'qnashuvlar ko'rinishida namoyon bo'luvchi ijtimoiy hodisadir. Bu o'rinda e'tiboringizni konfliktologiyaning umumiy xususiyatlari tahliliga tortamiz.

Konfliktologiya so'zi lotincha bo'lib, u to'qnashuv, ziddiyat va nizo ma'nolarini anglatadi.¹ O'zbek ilmiy tafakkurining hosilasi bo'lgan O'zbekiston milliy ensiklopediyasida "konflikt" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan:

1) qarshi tomonlar, fikrlar, kuchlar to'qnashuvi; 2) adabiyot va san'atda – badiiy asar mohiyatida yotgan ziddiyat.² Biz uchun bu o'rinda Konfliktologiyaning ziddiyat, to'qnashuv va nizo ma'nolari muhim o'rin tutadi. Konfliktologiya mazmuni va yo'nalishi nuqtai nazaridan *maishiy, axloqiy, ijtimoiy, siyosiy, falsafiy va iqtisodiy* turlari mavjud. Konfliktlarning mohiyati ijtimoiy hayot bilan uzviy bog'liq, shu sababli u shaxs hayotida muhim o'rin tutadi. Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent M.T.Axmedova konflikt hodisasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Konflikt -o'zaro qarama-qarshi bo'lgan ziddiyatli manfaatlar va

¹ Axmedova M.T. Pedagogik konfliktologiya. –T., 2017 11-bet

² O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 5-jild. –T., 2003. 20-bet

munosabatlarning ochiq to‘qnashuvidir”.¹ Shunisi borki, ba’zi davrlarda konfliktlar voqelik, muhit, shart-sharoit bilan ideallik o‘rtasida, yaxshilik bilan yomonlik, ruhiy erkinlik bilan turmush tashvishlari o‘rtasida ziddiyatli hodisa sifatida hukmronlik qilgan.

Pedagogik konfliktlar o‘ziga xos hodisa bo‘lib, ular quyidagi jarayonlarda paydo bo‘ladi:

- ta’lim jarayonida;
- tarbiya jarayonida;
- tadbirlar jarayonida;
- o‘zaro munosabatlar jarayonida.

Lekin pedagogik konfliktlar quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ladi:

- muddatli tarzda kechadi;
- makonda ro‘y beradi;
- ularni bartaraf etish imkoniyatlari mavjud bo‘ladi.

Shu sababli oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari pedagogik konfliktlarni bartaraf etish kompetensiyasi bilan qurollantirish taqoza etiladi. Buning uchun quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- pedagogik konfliktlar asoslari bo‘yicha nazariy bilim berish;
- pedagogik konfliktlarni bartaraf etish metodlari va texnologiyalari bilan qurollantirish;
- bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini konfliktli vaziyatlar bilan ishlashga tayyorlash.

Bunday o‘quv jarayonini amalga oshirishda pedagogik fanlarning, ayniqsa “Pedagogik konfliktologiya” o‘quv fanining ahamiyati katta.

Pedagogik konfliktologiya masalalari bo‘yicha Rossiya Federatsiyasi olimlari tomonidan juda yaxshi ilmiy-tadqiqotlar va o‘quv adabiyotlari yaratilgan. Misol uchun, bu borada S.Alekseyev, A.Ansupov, I.Nikulina kabilarning taqdiotlarida pedagogik konfliktlarni aniqlash, turkumlashtirish, ularning darajasini belgilash va bartaraf etish metodlari ishlab chiqilgan. Mazkur olimlarning ilmiy ishlanmalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bizning yondoshuvimizga ko‘ra, individual axloq bilan jamiyat axloqiy darajalari o‘rtasida konfliktlar yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu sababli konfliktlogiyaga quyidagi xususiyatlar xosdir:

¹ Axmedova M.T. Pedagogik konfliktologiya. 12-bet

1. *Konfliktlarning turlari.* Konfliktologiyaning yirik uch ko‘rinishi-ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy turlari mavjud. *Ijtimoiy* konflikt turlari shaxs axloqi, ongi va maqsad-muddaolariga ta’sir ko‘rsatuvchi omil hisoblanadi. *Iqtisodiy* konflikt turlar esa shaxsning yaratuvchilik, ijodkorlik va jamiyatning farovonlik negizlariga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar majmuidir. *Siyosiy konflikt* ko‘p hollarda siyosiy partiyalar va davlatlararo ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Bizning tadqiqotimiz nuqtai nazaridan ijtimoiy konflikt turlari muhim o‘rin tutadi va ularning turli ko‘rinishlari, shakllari hamda omillari 7-11 yoshli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxonlik, bilimdonlik va ko‘nikuvchanlik malakalariga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi hodisa hisoblanadi. Shu jihatdan biz konfliktlarning ijtimoiy xarakterdagi turlariga tadqiqotimizda asosiy e’tiborni qaratamiz.

2. *Konfliktlarning ko‘rinishlari.* Konfliktlarning ikki muhim-ichki va tashqi ko‘rinishi mavjud. *Ichki* konfliktlar muayyan muhitda yaqin kishilar o‘rtasida yuzaga keladi. *Tashqi* konfliktlar esa tashqi kuchlar ta’sirida yuzaga kelib, shaxs hayotiga daxl qiladi.

Ichki konfliktlar ko‘p hollarda ta’lim va tarbiya jarayonida ta’lim ishtirokchilari o‘rtasida yuzaga keladi. Misol uchun, o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro ziddiyatlar, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi nizolar, o‘quvchi va maktab jamoasi orasidagi kelishmovchiliklar ichki konfliktlarning muhim ko‘rinishidir.

Tashqi konfliktlar ongli ravishda ba’zi shaxslar tomonidan paydo qilinadi. Misol uchun, ongi rivojlanishda bo‘lgan o‘quvchilarni ba’zi din vakillari tomonidan dinga majburlashi, katta yoshlilarning o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasiga nifoq solishi, nosog‘lom oilalardagi muhitning o‘quvchiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi kabilar tashqi konfliktlarning yaqqol ko‘rinishidir.

3. *Konfliktlarning xususiyatlari.* Bizning tahlillarimiz natijasiga ko‘ra, konfliktlarning ikki muhim- o‘tkinchi va doimiy xususiyatlari mavjud. Unga binoan *o‘tkinchi* xususiyatga konfliktlar muddatli va makonda ro‘y beradi. Misol uchun, ta’lim muassasalarida o‘quvchilar o‘rtasida ro‘y beradigan konfliktlar o‘tkinchi xususiyatga egadir. *Doimiy* xususiyatga ega konfliktlar muddatsiz bo‘lib davomiy va izchil xarakterga ega bo‘ladi. Misol uchun, katta yoshli shaxslar, tadbirkorlar va iqtisodiy o‘rish o‘rtasidagi konfliktlar doimiy xususiyatga ega bo‘ladi.

Pedagogik nuqtai nazardan o‘tkinchi xususiyatga ega konfliktlar

xarakterli bo‘lib, ularni bartaraf etish imkoniyatlari mavjud. Doimiy xususiyatga ega konfliktlar esa “Sotsiologiya” va “Politologiya” fanlari vositasida ularning ta’sir kuchi susaytiriladi.

4. Konfliktlarning darajasi. Konfliktologiya nazariyasida konfliktlarning darajasi belgilangan emas. Bizning kuzatishimizga ko‘ra, konfliktlarning kichik va yirik ko‘lamlari mavjud. Ularning *kichik* ko‘lami shaxslar o‘rtasida yuzaga keladi, *yirik* ko‘lami esa ko‘p hollarda muayyan davlatlar o‘rtasida paydo bo‘ladi. Mazkur yondashuv konfliktlarning ta’sir kuchini aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini topish imkonini beradi. Shu sababli muayyan konfliktlarning ko‘lamini aniqlab olish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bizning mazkur yondashuvimiz Konfliktologiya nazariyasiga mosdir. Politolog olimlar R.Jumayev, B.O‘tanov konfliktologiya masalasida individual yondashuvlarning muhim o‘rin tutishini ta’kidlab o‘tishadi.¹ Xorijlik olimlar S.Banikina, V Gracheva konfliktlarni o‘rganish va ularni maktab sharoitida boshqarish mumkinligini ta’kidlab ko‘rsatishadi.² Mazkur olimlarning tadqiqotlarida konfliktlarni pedagogik nuqtai nazardan o‘rganish va tahlil qilish yondashuvlari bayon qilingan.

O‘zbek pedagog olimi M.T.Axmedovanning konfliktologiya muammosiga doir konsepsiyasi quyidagilardan iborat:

- konfliktlarning yuzaga kelish omillari va ularning xususiyatlari;
- pedagogik konfliktologiyaning ilmiy-nazariy asoslari;
- pedagogik konfliktlarning turlari;
- pedagogik konfliktlarni oldini olishda muloqot madaniyati;
- pedagogik konfliktli vaziyatda pedagogik-psixologik xizmat.³

E’tibor berilsa, M.T.Axmedovanning konfliktologiyaga doir yondashuvlarida pedagogik xususiyatlar muhim o‘rin tutadi. Shu sababli mazkur kontsepsiya bizning tadqiqotimizning negizi sifatida qabul qilindi.

O‘zbek pedagogik tajribasi tarixida konfliktologiyaning umumiy xususiyatlariga doir fikrlar va yondashuvlar bildirib o‘tilgan. Mazkur yondashuvlarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- shaxs ongi va ruhiyatida kechadigan ziddiyatlar tavsifi;
- shaxslararo kechadigan kelishmovchiliklar tarkibi;

¹ Jumayev R., O‘tanov B. Konfliktologiya asoslari. –T., 2015 14-bet

² Qarang: Banikina S. Konflikt v sovremennoy shkole: izucheniye i upravleniye. –M., 2006. Gracheva V Vvedeniye v pedagogicheskuyu konfliktologiyu. –M., 2004 va h.k.

³ Axmedova M.T. Pedagogik konfliktologiya. 8-210-betlar

- shaxs va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlar tasnifi.

Milliy pedagogikamiz manbalarida ko'proq shaxs ongi va ruhiyatida kechadigan ziddiyatlar to'g'risida so'z yuritilgan. Unga ko'ra, inson vujudidagi nafs va ruh ziddiyati birlamchi hisoblanadi. Chunki nafs ko'p orzu-niyatlarga intiladi, ruh esa sokinlik va kamolotga intiladi. Buning natijasida insonning o'zligida ziddiyatlar jarayoni kechadi. Mazkur masalalarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Biz bu o'rinda pedagogik tadqiqotchiligidamizda kam o'rganilgan avliyo mutafakkirlarning umumiy konfliktlar to'g'risidagi fikrlarga misol tariqasida e'tiboringizni tortamiz.

Zunnun Misriy (IX asr) shunday deydi: "Qalbda chuqur e'tiqod sobit bo'lsa, unda xavf ham mavjud bo'ladi".¹ Mazkur hikmatning ma'nosi shuki, shaxs qalbida e'tiqod kuchli bo'lsa, uni yo'q qiluvchi ziddiyati- xavf -xatar ham mavjud bo'ladi. Demak, konfliktlar shaxs ijtimoiy hayotida doimiy ro'y beradigan ijtimoiy hodisadir.

Abulhasan Sariy (IX asr) shunday deydi: "Dunyoning turgan bitgani ortiqchadir, lekin besh narsa bundan mustasno: non, suv, kiyim, uy, va manfaatlik ilm". Buning ma'nosi shuki, ijtimoiy hayotda konfliktlar tabiiy ravishda mavjud bo'ladi, lekin non, suv, kiyim, uy- maishiy turmush tarzida va manfaatli ilmda konfliktlarning salbiy ta'sir kuchi kam bo'ladi. Shu sababli mutafakkir konfliktlarga yondashishda ilm, odob, omonat (vaqtinchalik) va iffat qadriyatlariga asoslanishni tavsiya etadi.² Bizningcha, bu o'ziga xos yondashuv bo'lib, unga ko'ra, ilm va odob qadriyatlariga tayanib konfliktlarni bartaraf etish mumkin.

Muhammad Termiziy (IX asr) "Besh toifa kishilar besh joydan islohot topadi: bolalar kitobdan, jinoyatchi jazodan, ayol kishi uyidan, yoshlar ilmdan va giyohvandlar masjiddan". Bu o'rinda konfliktlarga duchor bo'ladigan shaxslar va ularni bartaraf etish o'rinlariga duch kelamiz. Demak, bolalar va yoshlar duch keladigan konfliktlarni kitob va ilm vositasida, jinoyatchilarni jazo vositasida, ayollarni qadrlash vositasida va giyohvandlarni tarbiyalash vositasida konfliktlardan qutqarish mumkin. E'tibor berilsa, mutafakkir bolalar, yoshlar, ayollar, jinoyatchilar va giyohvand shaxslarning konfliktlarga ko'proq duchor

¹ Abdurahmon Sullamiy. Tabaqoti sufiyya. –T.: "Fan". 2004 17-bet. Barcha ko'chirmalar shu manbadan olinadi.

² Shu manba 22-bet

bo'lishini ta'kidlaydi. SHu sababli bolalar, ayollar va yoshlar duch keladigan konfliktlarni ta'lim va tarbiya asosida, jinoyatchilar va giyohvandlarni sotsiologik adaptatsiya vositasida bartaraf etish mumkin.

Abubakr Varroq Termiziyning (IX asr) fikricha, "odamlar uch toifaga bo'linadi: olimlar, amirlar(davlat xodimlari) va qorilar (ziyolilar)". Demak, konfliktlar tabiiy ravishda insonning ijtimoiy mavqeiga nisbatan ta'sir ko'rsatadi. Unga ko'ra, oddiy odamlarga konfliktlar kuchli tarzda salbiy ta'sir ko'rsatadi, davlat boshliqlariga konfliktlar ruhiy ta'sir ko'rsatadi va ziyolilarga esa konfliktlar ma'naviy-ijtimoiy ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega bo'ladi.

Ahmad Yassaviy (XII asr) o'z hikmatlarida Nafs va Ruh ziddiyatlarini juda yaxshi talqin qilgan. Bir o'rinda u deydi:

Beshak biling bu dunyo,
Barcha xalqdan o'taro.
Inonmog'il molingga,
Bir kun qo'ldan ketaro.

Mazkur o'rinda Ahmad Yassaviy Nafsnı jilovlash bilan Ruhni ulg'aytirish va natijada inson vujudida kechadigan turli ziddiyatlarni bartaraf etish mumkinligiga ishora qiladi. Shu jihatdan Yassaviyning yo'li Nafsning orzu-niyatlariga qarshi kurashishdir.

Sulaymon Boqirg'oni (XII asr) esa o'z hikmatlarida o'zgalar bilan ziddiyatlarga kirishmaslik masalasini talqin qilgan. Bir o'rinda u deydi:

Barcha yaxshi,
Biz yomon.
Barcha bug'doy,
Biz somon.

Bu bilan Sulaymon Boqirg'oni inson ziddiyatlarni o'zligidan izlashiga ishora qiladi. Shu sababli Boqirg'oni (XII asr) insondagi ziddiyatlarni bartaraf etish bilan jamiyatda konfliktlarga barham berish yo'lidir.

Alisher Navoiyning (XV asr) "Xamsa" asarida inson va jamiyatda kechadigan ziddiyatlar Ishq konsepsiyasi asosida tahlil etilgan. Unga ko'ra, insonni Ishq vositasida tarbiyalash lozim va shunda inson komillashib o'rinsiz ziddiyatlardan chekinadi. Mutafakkirning Farhod, Shirin, Majnun, Layli, Dilorom va Bahrom bosh obrazlari ishq vositasida tarbiyalanganligi tufayli ular o'zgalar bilan ziddiyatga kirishmaydi va aksincha, o'zligidagi kamchiliklar bilan kurashadi.

Bundan tashqari, jadid ma'rifatparvarlarining asarlarida bilim va

bilimsizlik ziddiyatlari juda yaxshi talqin qilingan. Shu sababli jadid ma'rifatparvarlari asarlaridan pedagogik konfliktlar ildizlari masalasini o'rganishda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbek pedagogikasi tarixida konfliktlar muammosi quyidagicha idrok etilgan:

- muammolarning kelib chiqishi va ularning ziddiyatli asoslari;
- ziddiyatli muammolarning sabablari va oqibatlari;
- ziddiyatlarning turlari va shakllari.

Bunday yondashuv o'zbek pedagogikasi tarixida mutafakkirlar, shoir va yozuvchilar ijodida ifodalab berilgan. Lekin, konfliktlar muammosi ilmiy va ijtimoiy jihatdan tadqiq etilgan emas. Amir Temurning "Tuzuklar" asarida ijtimoiy konfliktlardan xalq va amaldorlar o'rtasidagi nizolar, davlatlararo kelishmovchiliklar va hukmron xalqlarning bosqinchilik nizolari to'g'risida batafsil ma'lumot beriladi. Ushbu manbada ifodalangan konfliktlarning turlarini quyidagicha tarkiblash mumkin:

- ijtimoiy konfliktlar;
- siyosiy konfliktlar;
- davlatlararo konfliktlar;
- fuqaro va davlat o'rtasidagi o'zaro tushunmovchilik nizolar.

Mazkur manbadagi konfliktlar turlarini kelib chiqishi ko'p hollarda mavjud ijtimoiy tuzumning holati, xalq hayotining moddiy darajasi va davlatlarning hukmron boshqaruv siyosati oqibatlariga bog'lanadi. Ayni paytda, Amir Temurning mazkur asarida ta'limga oid muammolar tilga olinmaydi, ammo davlat boshqaruvi amaldorlarini tarbiyalash to'g'risidagi qarashlarida tarbiyaviy konfliktlar tilga olinadi. Buning sababi shundaki, uning davrida ta'lim xususiy tizim ob'ekti edi, tarbiya esa ijtimoiy xarakterga ega bo'lib unin amalga oshirish jamiyat va davlat zimmasida bo'lgan. Shu sababli Amir Temur asarida siyosiy xususiyatga ega konfliktlar to'g'risida so'z boradi. Shuni ta'kidlash kerakki, Amir Temurning "Tuzuklar" asarida konfliktlarni bartaraf etishning yagona faktori sifatida *murosayu - madora* masalasi ko'rsatiladi. Unga ko'ra, do'stu dushmanga murosayu-madora (kompromis) munosabatda bo'lish kerak. Savol tug'iladi: do'stga konfliktli vaziyatlarda murosa qilish tushunarli, lekin bunday vaziyatda dushmanga nisbatan murosa qanday xususiyatga ega bo'ladi? Buning javobi shuki, konfliktli vaziyatlarda dushmanga nisbatan konfliktlarni ko'paytirish uning dushmanligini orttiradi, shu sababli konfliktli holatlarda dushmanga nisbatan murosa qil-

ish muhim yechimlardan biridir. Amir Temur tomonidan konfliktlarni bartaraf etishga doir taklif qilingan bu faktor ilmiy xususiyatga egaligi bilan ahamiyatlidir. Biz konfliktologiya nazariyasida Amir Temurning mazkur yondashuvlarini original xususiyatga ega deb qabul qilamiz. Haqiqatdan ham murosayu-madhora, ya'ni kompromis konfliktlarni bartaraf etishning muhim asosidir. Chunki bunday yondashuvda kelishuvchanlik, inson huquqlariga rioya qilish va amaliy natijalarga erishish omillari mavjud. Aynan konfliktologiya nazariyasida bu omillar muhim o'rin tutishini ta'kidlab o'tish joiz.

O'zbek pedagogikasi manbalarida konfliktlar muammosi nizo, ziddiyat, kelishmovchilik va to'qnashuv atamalari orqali ijtimoiy, siyosiy va badiiy ifodalanadi. Shu jihatdan konfliktlar muammosi inson ongi, qalbi va ruhiyatida tug'ma instinkt sifatida mavjud ekanligi namoyon bo'ladi. Chunki sharq falsafasida yaxshilik va yomonlik, yovuzlik va ezgulik, shaytoniylik va rahmoniylik inson vujudida mavjud deb hisoblanadi. Bu nazariya Qur'oni Karimdan olingan bo'lib, misol uchun, "Baqara" surasida inson va shayton, inson va Alloh o'rtasidagi munosabatlarda konfliktlarning ko'rinishlari namoyon bo'lgan. Unga ko'ra, inson vujudida Nafs va Ruh ziddiyatlari mavjud. Mazkur tushuncha Yevropa pedagogikasi manbalarida Aql va Tuyg'u o'rtasidagi ziddiyatlar sifatida ifodalanadi. Shu sababli konfliktologiya nazariyasida Sharq ta'limoti bo'yicha nafs va ruh o'rtasidagi ziddiyatlar, G'arb ta'limotida esa aql va tuyg'u o'rtasidagi nizolar farqlanishi e'tiborga olinishi kerak. Shu jihatdan bizning yondashuvimizga ko'ra, konfliktologiya nazariyasida Sharq va G'arb yondashuvlarini farqlash maqsadga muvofiqdir.

Umumkonfliktologiya nazariyasi manbalarida konfliktlarning ijtimoiy, siyosiy, tarixiy va iqtisodiy turlari to'g'risida ma'lumot berilsada, lekin ularda pedagogik xususiyatlar bo'rtib turadi. Misol uchun, ijtimoiy xarakterdagi konfliktlarda ta'lim va tarbiyaga oid ziddiyatlar, siyosiy konfliktlarda boshqaruv munosabatlariga oid nizolar, tarixiy xususiyatga ega konfliktlarda jamiyat rivojiga oid to'siqlar va iqtisodiy konfliktlarda esa hayotga oid to'qnashuvlar mavjud. SHu sababli bu konfliktlarning barchasini pedagogik xususiyatga ega deb qabul qilamiz.

Konfliktlar nazariyasida ta'lim va tarbiyaga oid ziddiyatlar alohida o'rin tutadi. Mazkur masalada Sharq manbalarida ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi, ota-ona va ta'lim beruvchi o'rtasidagi ziddiyatlarga alohida urg'u beriladi. Masalan, Abdurauf Fitratning (1884-1938)


“Munozara” (1909 yilda yozilgan) asarida ta’limga oid konfliktlarning quyidagi ko’rinishlari alohida tasniflab o’tilgan:

- ta’limni tashkil etishda manfaatdor tomonlar o’rtasidagi ziddiyatlar;
- ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o’rtasidagi tushunmovchiliklar;
- ta’lim beruvchilar o’rtasidagi moddiy kelishmovchiliklar;
- ta’limni tashkil etishdagi jihozlash va ta’lim berishdagi vositalarning

natijadorligi to’g’risidagi kelishmovchiliklar.

Bunda Abdurauf Fitrat Sharq va G’arb ta’lim jarayonini qiyoslab ko’rsatadi. Uning fikricha, Sharq ta’lim muassasalarida (maktablar, madrasalar) mavjud bo’lgan ta’limni tashkil etish sharoitlari eskirib ketganligi sababli ta’lim jarayonida konfliktlar mudom paydo bo’ladi, G’arb ta’lim muassasalarida (maktablar, litseylar) tashkil etiladigan ta’lim jarayoni va muhiti insonparvarlik tamoyillariga asosan tashkil qilinishi sababli ta’lim jarayonida konfliktlar kam uchraydi. Abdurauf Fitrat bunday fikrga, bizningcha, 1907-1909 yillarda Turkiyada o’qigan davrida kelgan. Chunki u o’qish davrida Yevropa ta’lim tizimi, ayniqsa Fransiya ta’lim muhiti bilan chuqur tanishgan.

Umuman konfliktologiyaning xususiyatlari turli ko’rinishlar, shakllar va atamalar vositasida Sharq manbalarida to’liq ifodalangan. Biz ularni pedagogik xususiyatga ega konfliktlar sifatida qabul qilamiz. Shu sababli biz konfliktlar *tipologiyasini* quyidagicha tasavvur qilamiz:



1.1.1-rasm. Konfliktlar tipologiyasi

Shunday qilib konfliktologiyaning nazariy, ijtimoiy va amaliy xususiyatlari ko'zga tashlanadi. Bu borada o'zbek milliy pedagogikasi tajribasida avliyo mutafakkirlar o'z davri shart-sharoitidan kelib chiqib munosabat bildirganligiga duch kelamiz. Bizningcha, bu meros konfliktologiya nuqtai nazaridan o'rganilib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Mazkur o'rinda quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tish joiz:

- konfliktologiyaning nazariy masalalarini keng darajali ravishda tadqiq etish;
- konfliktlarning ijtimoiy tabiati, xususiyati va ta'sir darajasini o'rganish;
- konfliktlarning shaxs hayotiga amaliy ta'siri va uni bartaraf etish omillarini tahlil qilish.

Zero, konfliktologiyaning xususiyatlari pedagogik, psixologik, sotsiologik va politologik jihatlariga egaligi bilan diqqatni tortadi. Shu sababli bizning tadqiqotimizda konfliktlarning pedagogik xususiyatlari va ularning boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan turlari tahlili o'z ifodasini topdi. Buning uchun biz pedagog, psixolog va sotsiolog olimlarning fikr-mulohazalari, yondashuvlari va qarashlarini umumlashtirilgan holda qabul qildik. Bizning konsepsiyamizda konfliktologiyaning pedagogik xususiyatlarini tashkil qiladi.

Shunday qilib, pedagogik konfliktlar umumkonfliktologiyaning o'ziga xos tarkibi bo'lib, ularni bartaraf etish imkoniyatlari mavjud. Biz pedagogik konfliktlar masalasiga ana shu jihatdan yondashamiz.

1.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlar – muhim pedagogik muammo sifatida

Pedagogik konflikt - konfliktologiya nazariyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu masala pedagogika fanlari nomzodi M.T.Axmedova tomonidan maxsus tadqiq etilib, uning "Pedagogik konfliktologiya" monografiyasida o'ziga xos tarzda tahlil qilib berilgan. Bizning yondashuvimizda uning ta'rifi quyidagicha: *pedagogik konflikt* - bu ta'lim va tarbiya jarayonida ta'lim ishtirokchilari o'rtasida ro'y beradigan ziddiyatlar majmuidir.

Ta'kidlab o'tilganidek, "konflikt" so'zi "ziddiyat", "ixtilof", "to'qnashish", "kelishmaslik", "o'zaro tushunmaslik" kabi ma'nolariga ega.

Lekin, ular orasida pedagogik nuqtai nazardan *ziddiyat* ma'nosi maqbul hisoblanadi. Chunki, ziddiyat tushunchasini mazkur hodisaning nisbiy va o'tkinchi xususiyatga egaligi namoyon bo'ladi. Shu jihatdan pedagogik konfliktologiyaning o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan xususiyati ziddiyatlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu quyidagilar bilan izohlanadi:

1) "ziddiyat" so'zi konflikt atamasining madaniy ma'nosi bo'lib, nisbatan ijobiy xususiyatga ega;

2) ziddiyat- vaqtinchalik hodisa hisoblanadi;

3) ziddiyatda dag'illik yoki kuch ishlatish ottenkasi yuq;

4) ziddiyat- bartaraf etish mumkin bo'lgan xarakterga ega bo'ladi.

Mazkur pedagogik tahlillardan kelib chiqib, biz "pedagogik konflikt" tushunchasini ta'lim va tarbiya jarayonida yuzaga keladigan va bartaraf etish omillariga ega bo'lgan *ziddiyatlar majmui* ma'nosida qo'llaymiz. Buning uchun pedagogik konfliktlar hodisasini umumiy Konfliktologiya fenomeni tarkibida tekshirib, uning ko'rinishlari, shakllari va turlari haqida ularning bartaraf etish texnologiyasini tadqiq etish taqozo etiladi.

Pedagogik konfliktlar siyosiy, iqtisodiy va sotsial konfliktlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu o'rinda mazkur xususiyatlarning eng muhimlarini ta'kidlab o'tamiz.

1. *Ta'limiy xarakterga egaligi.* Pedagogik konfliktlar eng avvalo ta'lim va tarbiyaviy xarakterga ega bo'lib, u aynan ta'lim jarayonida bilim olish, tarbiyalanish hamda odatlanish voqeligida yuzaga keladi. SHu sababli pedagogik konfliktlar ta'lim tarbiya va faoliyat voqeligida yuzaga keladigan ziddiyatlar hisoblanadi.

2. *Muddatli xarakterda bo'lishi.* Pedagogik konfliktlar muddatli (vaqtga ega) xususiyatga ega bo'lib, ular kelib chiqishi va oqibatlari nuqtai nazaridan nisbatan o'tkinchi ziddiyatlardir. Chunki ularning paydo bo'lishida ichki va tashqi omillar, zamon va makon ta'sirlari bo'ladi. Shu jihatdan pedagogik konfliktlar muayyan ko'rinishlar, shakllar va turlarga xos tarzda yuzaga keladi, vaqt va makon ta'sirida ular susayishi yoki ko'payishi mumkin.

3. *Shaxslar o'rtasida kechishi.* Pedagogik konfliktlar ta'lim ishtirokchilari- o'quvchi va o'qituvchi (murabbiy), o'quvchi va o'quvchi, o'quvchi va ota-ona, o'quvchi va maktab jamoasi o'rtasida kechadigan ziddiyatlardir. Shu jihatdan bu hodisa aniq obyektlarga ega bo'lib,

uning darajasi va oqibatlarini shaxslarga bog'liq bo'ladi.

4. *Bartaraf etish omiliga egaligi.* Pedagogik konfliktlar ta'limiy, muddatli, shaxslar o'rtasida kelish xususiyatlariga egaligi bilan bartaraf etish faktori mavjud bo'ladi. Chunki pedagogik konfliktlarda zo'ravonlik, kuch ishlatish yoki tahdid xususiyatlari bo'lmaydi, aksincha, ular-da o'qish, o'rganish, o'zlashtirish va ko'nikish xususiyatlari bo'lganligi uchun bartaraf etish imkoniyatlari mavjud.

Zero, pedagogik konfliktlar ana shunday o'ziga xos xususiyatlariga egaligi bilan siyosiy, iqtisodiy va sotsial ziddiyatlardan farqlanadi. Bunda yana quyidagi o'qitish jarayoniga oid pedagogik nizolarni ham hisobga olish lozim.

O'quv jarayonidagi nizo— bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida muayyan masalalarni hal qilishda tomonlarning bir-biri bilan bir yechimga kela olmaganligi tufayli vujudga keladigan vaziyat.

Ta'lim jarayonidagi nizolar har qanday kishilar kayfiyatiga salbiy ta'sir qiladi va ularning bilim olish qobiliyatini, istak-xohishini pasaytiradi, guruhdagi "ruhiy iqlim"ni yomonlashtiradi, o'quvchilar qo'nimsizligini ko'paytiradi. SHuning uchun bu masalalarga doimo e'tibor berish, ta'lim olayotgan guruhlarini boshqarishni, o'quvchilar turg'unligini ta'minlovchi shartlardan biridir. O'qituvchi har bir aniq vaziyatning tagiga adolat va obyektivlik bilan yetishi, tegishli xulosalar chiqarishi kerak.

Pedagogik – psixologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, "ruhiy iqlim" yaxshi bo'lgan, intizomli bo'lgan joyda faqat bilim olish yuqori emas, balki pedagogik nizolar ham anchagina kam, o'quvchilarning o'z bilimidan katta qoniqish olayotgani ko'zga tashlanib turadi.

Ta'lim jarayonida nizoli vaziyatlar turli sabablarga ko'ra vujudga kelishi mumkin. Ulardan:

- ta'limni tashkil qilishdagi kamchiliklarni;
- rag'batlantirishning takomillashtirilmagani;
- yomon ta'lim sharoitlarini;
- ta'lim to'g'risidagi qonunlarni buzishni;
- o'qituvchi saviyasining pastligi;
- o'zaro munosabatlar madaniyatining qoniqarsizligi va hokazolarni ko'rsatish mumkin.

Pedagogik nizolarning uch turi uchrab turadi: O'qituvchi va o'quvchi orasidagi nizo bir o'quvchining o'ziga bir-biriga zid topshiriqlar berilib,

o'qituvchining talabi bir-biriga mos kelmay, o'quvchi bunday holda nima qilishini bilmay xunob bo'lgan hollarda vujudga keladi. Masalan, ta'lim muassasasida o'qituvchi o'quvchiga vazifa berib, vazifaning bajarilishini o'qituvchi talab qildi, deylik. Keyinroq esa o'qituvchi o'quvchidan bu vazifalarga nihoyatda ko'p vaqt sarflagani va natijada, qolgan vazifalarga tayyorlanmaganidan shikoyat qilsa, bunday talab oldingi talabga zid bo'lib chiqadi. Oqibatda o'quvchi nima qilishni bilmay xunobi oshadi.

O'qituvchi va guruh o'rtasidagi nizo ko'p hollarda ularning u yoki bu masalaga bo'lgan nuqtai nazarlarining mos tushmasligi, O'qituvchi guruhlar o'rtasida vazifalarni taqsimlash, guruhlar bilan o'qituvchi o'rtasida esa ta'lim olish sharoitining qoniqarsizligi kabilar yuzasidan vujudga kelishi mumkin. Eng yaxshi talabaga ikki nomzod qo'yilganda ham shu turdagi nizolar kelib chiqish hollari bo'ladi. O'qituvchi va o'quvchilar orasidagi nizo hayotda keng tarqalgan nizolar. Bunday nizolar ta'lim olish jarayonida quyidagicha bo'lishi mumkin, masalan:

- ayrim talabalarning vazifani bajarmasligi;
- muntazam ravishda besabab dars qoldirishi;
- darslarda intizom saqlamay o'qituvchining asabiga tegishi;
- o'qituvchining bir o'quvchini boshqa o'quvchidan ustun qo'yishi va hokazo.

Yosh o'qituvchining guruh bilan to'qnashuvi ham o'qituvchi va guruh o'rtasidagi kelishmovchilik oqibatida bo'ladi. O'quv jarayonida har bir o'qituvchi va o'quvchi orasidagi o'zaro munosabati ikki tarkibiy doirada: formal (yoki rasmiy) va noformal (yoki norasmiy) doirada amalga oshadi.

Har ikkala o'qituvchi va o'quvchi orasidagi o'zaro munosabatlar doimo bir-biriga ta'sir qilib, shu jarayonda nizoli holatlar ham vujudga kelib turadi. Mavhumligiga qarab, pedagogik nizolar ochiq yoki yopiq ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Ochiq nizolar odatda o'qituvchi va o'quvchining ko'z oldida, to'g'ridan-to'g'ri vujudga keladi. Ular to'qnashish sodir bo'lgunga qadar to'liq etilgan bo'ladi. Bunday nizolar rahbariyat nazorati ostida turganligi sababli ta'lim jarayoni uchun unchalik xavf tug'dirmaydi va ularni boshqarish oson kechadi.


Yopiq nizolar bunday nizolarni asta-sekin belgilangan fursatda portlaydigan minaga o'xshatsa bo'ladi. Agar nizo hali "yetilmagan" yoki

ularni boshqalar nigohidan yashirilsa, boshqacha qilib aytganda, nizo o'qituvchi va o'quvchi "ichida" bo'lsa, bilingki, bu nihoyat xavfli va uni boshqarish juda qiyin. Yopiq nizolar ko'pincha, fitna, ig'vo, hiyla nayrang, fisq-fasod shaklida rivojlanish oqibatida vujudga keladi. Ular oraga fitna solish, buzg'unchilikka qaratilgan bo'lib, yolg'on-yashiq, uy-dirma, bo'hton gaplar o'quvchilar uchun asosiy qurol vazifasini bajaradi.

Xarakteriga qarab, pedagogik nizolar obyektiv yoki subyektiv nizolarga bo'linadi. *Obyektiv nizolarga* ta'limning rivojlanish jarayonida yuzaga chiqadigan real kamchiliklar va muammolar bilan bog'liq nizolar kiradi. *Subyektiv nizolarga* o'qituvchi va o'quvchilarning u yoki bu voqelikka bo'lgan shaxsiy fikrlarining turlichaligi oqibatida vujudga keladigan nizolar kiradi. Shunday qilib har qanday mahoratli o'qituvchi jamoadagi nizolardan uzoq bo'lishga harakat qilishi lozim. O'zaro munosabatlar faqat yaxshilikka yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Eslatib o'tish joizki, o'quvchi va o'zgaralar orasidagi konfliktlar ziddiyat xarakteriga, o'qitish jarayonidagi konfliktlar esa nizo xarakteriga ega bo'ladi. Bunda ziddiyat va nizolarning majmui pedagogik konfliktlar omillarini o'taydi. Shu sababli bizning yondashuvimizda, pedagogik konfliktlar keng qamrovli tusga ega bo'ladi.

Shunday qilib pedagogik konflikt hodisasi mazmuni quyidagicha idrok etiladi:



1.2.1-rasm. Pedagogik konfliktlar tizimi

Keyingi vaqtlarda zamonaviy jamiyatlardagi insonga bo'lgan turli ilmiy-texnik, ma'naviy, iqtisodiy ta'sirlarning haddan ziyod ortib borishi, zamonaviy jamiyatlarda yashash tarzining murakkablik tomon ortib borayotganligi odamlar to'qnash kelishi mumkin bo'lgan turli konfliktli vaziyatlarni ham oshirmoqda. Shunday ekan, nizo(konflikt)lar inson hayotining ajralmas tarkibiy qismi bo'lar ekan, konfliktlarni tan olmaslikning, ularni inobatga olmaslikning ilojisi yo'q. Faqat nizolarni boshqarish, ularning yechimini topishga o'rganish lozim.

Nizolar tipologiyasi, ya'ni uning o'ziga xos tiplarga, ko'rinishlarga bo'linishi ancha murakkab hodisa hisoblanadi. Chunki har bir real konflikt faqat uning o'zigagina hos bo'lgan xususiyatlardan iborat bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, nizolarni o'xshash guruhlariga ajratib o'rganish biroz qiyinchiliklar tug'diradi. Ammo nizolarni biror to'xtamga, biror ijobiy natijaga keltirish usullari jihatidan ba'zi umumiy qoidalar va tamoyillarni ajratib ko'rsatish mumkin: Nizodan pedagogik jarayonda mohirona foydalanish uchun albatta nazariy bilimlarga ega bo'lish kerak: uning dinamikasini va uning barcha tashkil qiluvchilarini yaxshi bilish kerak. Nizoli jarayon to'g'risida faqatgina hayotiy tasavvurlarga ega bo'lgan insonga nizodan foydalanish texnologiyasi to'g'risida gapirish foydasizdir.

Nizo – istaklari, qiziqishlari, qadriyatlari yoki tushunchalari mos kelmasligi sababli yuzaga keladigan ikki yoki undan ortiq sub'ektlar o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro aloqalar shakli subyektlar individ, guruh, o'z-o'zi bilan ichki nizolar holatlarida bo'ladi. "Nizo" va "nizoli vaziyat" tushunchalarini ajratishni bilish kerak, ular o'rtasida katta farq bor.

Nizoli vaziyat– ijtimoiy sub'ektlar o'rtasida haqiqiy qarama-qarshilikni yuzaga keltiruvchi hodisadir. Asosiy belgisi–nizo predmeti yuzaga kelishi, lekin hozircha ochiq faol kurashning yo'qligidir. Ya'ni to'qnashuv rivojlanishi jarayonida **nizodan oldin** har doim **nizoli vaziyat** yuzaga keladi, uning asosi hisoblanadi. Nizolar hozirgi zamonning eng dolzarb ijtimoiy muammolaridan biridir. Nima sababdan mehnat jamoalarida turli xil nizolar kelib chiqadi? Buning bir necha sabablari bor: Demak, yuqoridagi holatlar ko'p hollarda quyidagi turdagi nizoli vaziyatlarni keltirib chiqaradi:

- 1) ta'sirning yo'nalishiga ko'ra: vertikal va gorizontal;
- 2) nizoni hal qilish usuliga ko'ra: antagonistik va kelishuvga olib

keladigan nizolar - kompromiss;

3) namoyon bo'lish darajasiga ko'ra: ochiq, yashirin, potentsial, asosli;

4) ishtirokchilar soniga ko'ra: shaxsiy, shaxslararo, guruhlararo;

5) kelib chiqish tabiatiga ko'ra: milliy, etnik, millatlararo, ishlab chiqarish, hissiy-emotsional.

Nizolarning yuzaga kelishida ikki xil shart-sharoit mavjud. Obyektiv shart-sharoitlarga: mehnat qilish uchun sharoitning yomonligi; xodimlar orasida majburiyat va vazifalarning noto'g'ri taqsimlanganligi; boshqaruv tizimidagi nomutanosibliklar; qo'yilgan vazifalarga mos professionallik xodimlarda kuzatilmaslgi; ishchi o'rinlarining yetishmasligi tufayli, ishlarning taqsimlanishidagi adolatsizlik; mehnatni tashkil etishva mehnatga haq to'lashda adolatsizlik holatlarining kuzatilishi. Nizolarning yuzaga kelishida subyektiv shart-sharoitlarga: ishbilarmonlik munosabatlarida negativ yo'llarning ko'rinishi; shaxslararo munosabatlarda shaxsga oid xususiyatlarning namoyon bo'lishi; muomalani tashkil etishda no'noqlik va savodsizlikning kuzatilishi. Har bir nizo alohida hodisa sifatida tahlil qilinadi, lekin ularning barchasiga hos bo'lgan ayrim qonuniyatlar borki, ularga avvalo uning bosqichlari yoki fazalari kiradi:

Nizo oldi bosqich – konfrontatsiya.

Nizoning o'zi – kompromiss yoki janjal.

Nizodan chiqish – muloqot yoki dissonans.

Demak, birinchi bosqichda konkret masala yuzasidan fikrlar yoki qarashlarda tafovut yoki qarama-qarshilik uchun shart-sharoit paydo bo'ladi. Ikkinchi bosqichda har ikkala tomon o'z qarashlarini qarshi tomonnikidan afzal bilib, ochiqchasiga bir-birlarini ayblay boshlaydilar. Nizoli holatlarda shaxsning qanday xulq-atvor xususiyatlarini namoyon etishiga qarab turli toifalar kuzatiladi. Nizoli vaziyatlarda olti xil shaxs toifalarini ko'rsatish mumkin. Bular:

1. Namoyishkorona toifadagi nizoli shaxslar:

1. Rigid toifadagi nizoli shaxslar:

2. bo'lmaydigan toifadagi nizoli shaxslar:

3. talab etadigan toifadagi nizoli shaxslar:

4. toifadagi nizoli shaxslar:

5. yo'naltirilgan toifadagi nizoli shaxslar:

1. shaxsidagi ziddiyat. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy, ruhiy va estetik o'sishda bo'lgani bois Ongi va Qalbida mudom

o'zgarishlar jarayonida kechadi. Buning natijasida tabiiy ravishda ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchisi shaxsida ziddiyatlar yuzaga keladi. Pedagogik xarakterdagi bunday ziddiyatlarning asosiy ko'rinishlari quyidagilardir:

- a) o'z manfaatini ustun qo'yish;
- b) bilimga qiziqishning susayishi;
- v) noaxloqiy xatti-harakatlarga qiziqish;
- g) xarakterida salbiy odatlarning paydo bo'lishi.

O'quvchi shaxsidagi bu ziddiyatlar tabiiy va ijtimoiy xususiyatga egaligi bilan ahamiyatga ega. Chunki bunday ziddiyatlar aynan ta'lim jarayonida yuzaga kelishi bilan e'tiborni tortadi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'qituvchisi har bir bola shaxsida paydo bo'ladigan va muddatli kechadigan bunday ziddiyatlarni mudom kuzatib borishi kerak.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchi shaxsida yuzaga keladigan ziddiyatlar bo'yicha nazariy tushuncha, kasbiy bilim va ko'nikmani egallashi taqozo etiladi. SHuning uchun oliy pedagogik ta'lim jarayonida mutaxassislik fanlarini chuqurlashtirilgan tarzda o'qitish kerak bo'ladi.

2. O'quvchilar o'rtasidagi o'zaro ziddiyat. Boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh xususiyatlariga ko'ra rivojlanish xususiyatlariga ega bo'ladi. Ularda shaxs bo'lib yetishining asosi bo'lgan "Men"lik tuyg'usi tezkor o'sish jarayoniga kiradi. Bu omillar ularning o'zaro ziddiyatlarga borishiga asos bo'ladi. Bunday ziddiyatlarning asosiy turlarini quyidagicha belgilash mumkin:

- a) xarakterlarning mos tushmasligi;
- b) xatti-harakatlarda "Men"tuyg'usining ustuvor qo'yilishi;
- v) o'zaro arazlashish, gaplashmaslik va gina qilish;
- g) o'ziga yaqin tutuvchi o'rtog'i yoki narsalarini qizg'onish;

O'quvchilar o'rtasidagi bu o'zaro ziddiyat turlari muddatli(o'tkinchi) va izchillik xarakterida bo'ladi. Shunisi borki, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida paydo bo'ladigan o'zaro ziddiyatlar intuitiv xarakterda bo'ladi. Unga ko'ra, subyektiv omillarga ko'ra bunday ziddiyatlar kelib chikadi va shu sababli ularga o'zga shaxslarning (o'qituvchilar, murabbiylar yoki katta yoshlilarning) aralashishi salbiy xususiyatlarga olib keladi.

O'quvchilar o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlar "men"lik tuyg'usining

hosilasi unutib bo'lmaydi. Kuzatishlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, bu ziddiyatlar o'zga shaxslarning noto'g'ri aralashuvi tufayli *davomiylik* tusini oladi.

3. O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi ziddiyat. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun nisbatan ideal shaxs - bu o'qituvchidir. O'zbekistonning hozirgi sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchisi maktabgacha ta'lim muassasasida Murabbiyga ko'nikma hosil qilgan bo'ladi, biroq boshlang'ich sinf o'qituvchisi ular uchun Ustoz maqomini oladi. Chunki O'qituvchi asosiy e'tiborni ta'limga, ya'ni o'qitish va bilim berishga qaratadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ta'lim jarayonida *talabni* me'yoridan oshirishi yoki noto'g'ri qo'yishi natijasida o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida muddatli ziddiyatlar paydo bo'ladi. Bu ziddiyatlarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- a) o'qituvchi talabini bajarmaslik;
- b) o'qituvchining so'ziga kirmaslik;
- v) topshiriqlarni chin dildan bajarmaslik;
- g) faollik ko'rsatmaslik.

Bu ziddiyatlar shiddatli xususiyatga ega bo'lsada, lekin ular boshlang'ich sinf o'quvchisining ruhiy, ma'naviy va fikriy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. SHu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'zi va o'quvchi o'rtasida paydo bo'layotgan anglashimovchilik yoki tushunmovchiliklarni o'z vaqtida ilg'ashi va unga munosabat bildirishi kerak.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'quvchi va O'qituvchi o'rtasidagi ziddiyatlar ba'zan o'quvchining O'qituvchini o'zgalardan qizg'onishi natijasida yuzaga keladi. Shu sababli bu voqelik pedagogik xarakterda bo'lishini unutib bo'lmaydi.

Hozirgi zamon ta'lim tizimida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi pedagogik konfliktlar tarbiyaviy ma'nodagi nizolar ko'rinishida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda butun dunyoda tajovuzkor muhitning kuchayishikuzatilmoqda. Bu nafaqat millatlararo munosabatlarga, balki shaxslar o'rtasidagi munosabatlarga ham tegishli. Shu sababli, bolalarni boshqalarga nisbatan mehribon munosabatda bo'lishga o'rgatish, boshqalarga e'tiborli bo'lishga o'rgatish juda muhimdir. Afsuski, zamonaviy dunyo muammosi maktab hayotini saqlab qolmadi. Hozirgi nashrlarda ko'pincha maktabdagi nizo muammosi ko'tariladi. Ularning

Didaktika lotincha soʻz boʻlib atama sifatida pedagogikaning taʼlim nazariyasi bilan shugʻullanadigan tarmogʻini anglatadi. Shu jihatdan boshlangʻich sinf oʻquvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning didaktik imkoniyatlari keng boʻlib, bu oʻrinda ularning eng asosiylariga diqqatingizni jalb etamiz.

Bizning yondashuvimizga koʻra, boshlangʻich sinf oʻquvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning asosiy didaktik imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

1. Fanlarni oʻqitish jarayonidagi didaktik imkoniyatlar. Bu

didaktik imkoniyatga ko'ra, boshlang'ich sinflarda (1-4-sinflarda) o'qitiladigan fanlar bo'yicha ta'lim berish jarayonida o'quvchilarda uchraydigan pedagogik konfliktlarning ko'rinishlari, shakllari va turlarini ta'limiy asosda bartaraf etish faktori mavjud. Bu borada ayniqsa, yangidan amaliyotga kiritilgan "Tarbiya" fani ta'limi jarayonidan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir. Misol uchun, biz tomonimizdan aniqlangan va boshlang'ich sinf o'quvchilarida ko'p uchraydigan pedagogik konfliktlardan biri o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlardir. Bu ziddiyatlar shaxsiy manfaatdorlik, qiziqish va "men" tuyg'usini ustun qo'yish natijasida yuzaga keladi, lekin ular o'tkinchi xususiyatga egaligi bilan ahamiyatlidir. SHu sababli 1-sinf "Tarbiya" fani imkoniyatlaridan unumli foydalanib o'quvchilardagi mazkur konflikt turini bartaraf etish mumkin. Masalan, darslikning 9-10- mavzusi "Har narsaning o'z o'Ichovi bor" deb belgilangan. Ushbu mavzuni o'rganish jarayonida bolalar me'yor, chegara, o'zni tutish, o'zgalarga to'g'ri munosabatda bo'lish va vaqtni to'g'ri sarflash kabi qoidalarni o'zlashtiradi. E'tibor berilsa mazkur dars mashg'ulotlarida o'quvchilar o'rtasida uchraydigan o'zaro ziddiyatlarni bartaraf etish imkoni bor. Chunki bu mashg'ulotlar o'quvchilarni o'zgal va boshqa narsalarga mehrlil munosabatda bo'lish qoidalari bilan tanishtiradi.

Ma'lum bo'ladiki, boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlar mashg'ulotlari davomida o'quvchilarda uchraydigan pedagogik konfliktlar turlarini ta'limiy bartaraf etish imkoniyati mavjud. Shu jihatdan "Ona tili" va "Tasviriy san'at" fanlarini o'qitish jarayonida ham bunday didaktik imkoniyatlar yuqoridir. Ana shunday imkoniyatlardan foydalanishda sinf rahbari va fanlar o'qituvchilarining o'zaro hamkorligi taqozo etiladi.

2. Tarbiyaviy mashg'ulotlar jarayonidagi didaktik imkoniyatlar.

Mazkur didaktik imkoniyatga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning ko'rinishlari, shakllari va turlari maxsus yondashuv asosida bartaraf etiladi. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlardan biri o'quvchi shaxsidagi ziddiyat ko'p uchraydi. Unda o'quvchi xarakteri va xulq-atvorida inijlik, atayin o'zini guruhdan tortish va beparvorik holatlari yuzaga keladi. Shu sababli bu konflikt turini tarbiyaviy mashg'ulotlar imkoniyatlariga tayanib bartaraf etish mumkin. Misol uchun, sinf rahbari bunday konflikt turi mavjud bo'lgan o'quvchi bilan alohida suhbatlashishi,

uning muammolarini aniqlashi va uni to'g'ri yo'naltirishi taqozo etiladi. Buning natijasida o'quvchi shaxsida uchraydigan ziddiyatlar bartaraf etila boradi. SHu jihatdan sinfda va sinfdan tashqarida olib boriladigan tarbiyaviy mashg'ulotlarning boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish didaktik imkoniyati yuqoridir.

3. Maxsus mashg'ulotlarning didaktik imkoniyatlari. Ushbu didaktik imkoniyatga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning ko'rinishlari, shakllari va turlari maxsus mashg'ulotlar tashkil qilish vositasida bartaraf etiladi. Buning mexanizmi quyidagicha: sinf rahbari pedagogik konfliktlar mavjud o'quvchi yoki o'quvchilar guruhi ro'yxatini tuzadi, ular bilan pedagogik konfliktlarni bartaraf etuvchi suhbatlar, qiziqarli didaktik o'yinlar, ijodiy musobaqalar va muzeylarga tashrif singari maxsus mashg'ulotlar turlarini o'tkazadi. Bu ishda sinf rahbariga Ona tili, Tarbiya va Tasviriy san'at fanlari o'qituvchilari hamda maktab psixologi yaqindan yordam berishi taqozo etiladi. Chunki asosiy maqsad o'quvchilarda yuzaga kelgan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishdir va bundan barcha ta'lim ishtirokchilari manfaatdor hisoblanadi.

Zero bizning yondashuvimizga binoan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning ana shu *uch turli* didaktik imkoniyatlari muhim ahamiyatga ega. Chunki bu didaktik imkoniyatlar turlari ta'limiy, tarbiyaviy va amaliy yondashuvlarni o'zida mujassam etgan. Shu sababli biz mazkur didaktik turlar imkoniyatlariga tayanib boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi pedagogik konfliktlarni ta'limiy qonuniyatlar, bola huquqi ustuvorligi va jamiyat manfaatdorligi uyg'unliklari asosida bartaraf etishning muhim faktorlari deb hisoblaymiz. Negaki boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda ana shu faktorlar ustuvor hisoblanadi.

Kezi kelganda shuni ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish *mexanizmi* shakllantirilishi kerak. Bu mexanizmda bizning yondashuvimizga ko'ra, Sinf rahbari asosiy vazifani bajaradi. Chunki, birinchidan, bugungi kunda sinf rahbari o'quvchilar ta'limi va tarbiyasi jarayonini tashkil etuvchi, uning samaradorligini ta'minlovchi asosiy ta'lim ishtirokchisi hisoblanadi; ikkinchidan, davlat

ta'lim standartlari va davlat talablarining boshlang'ich ta'limda sifatli bajarilishi nazorati sinf rahbari tomonidan olib boriladi; uchinchi, sinf rahbari o'quvchilarning eng yaqin kishisi, ota-onalarning bosh maslahatchisi va davlatning boshlang'ich ta'limdagi maxsus vakilidir; to'rtinchi, sinf rahbari har bir o'quvchini yaxshi biladi va har bir o'quvchi bo'yicha o'qituvchilarning bergan ma'lumotiga ega shaxsdir. Shu sababli biz boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish mexanizmidan Sinf rahbari asosiy vazifani bajarishi kerak.

Biz mazkur yondashuvimizdan kelib chiqib Sinf rahbarining ***“O'quvchilarda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish”*** namunaviy dasturini shakllantirdik. Mazkur dasturning mazmuni quyidagicha:

I. O'quvchilarda paydo bo'lgan pedagogik konfliktlarni aniqlash.

- har bir o'quvchining bilimga qiziqishi, axloqi va xatti-harakatlarini o'rganish;
- har bir o'quvchining faolligini kuzatish;
- har bir o'quvchida uchrayotgan ziddiyatli holatlar va harakatlarni daftarga qayd etib borish;
- pedagogik konfliktlar ko'rinishlari uchraydigan o'quvchilar ro'yxatini shakllantirish.

II. O'quvchilarda uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishga tayyorlanish.

- pedagogik konfliktlarning ko'rinishlari mavjud o'quvchilar ro'yxatini shakllantirish;
- Ona tili, Tarbiya va Tasviriy san'at fanlari o'qituvchilari va maktab psixologi ishtirokida Ishchi guruh tuzish;
- pedagogik konfliktlar uchraydigan o'quvchilarning ota-onalari bilan suhbat o'tkazish va uni Bayonnoma shaklida rasmiylashtirish;
- pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning ta'limiy, tarbiyaviy va amaliy shakllarini belgilash hamda bu jarayon haqida maktab Pedagogik kengashiga ma'lumot berish.

III. O'quvchilarda uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish.

- pedagogik konfliktlar mavjud o'quvchi yoki o'quvchilar guruhi bilan suhbatlashish, ularning muammolarini tashkiliy jihatdan hal etish;
- Ishchi guruh bilan birgalikda pedagogik konfliktlar mavjud o'quvchi yoki o'quvchilar guruhi bilan maxsus mashg'ulotlar, didaktik

o'yinlar va musobaqalar o'tkazish;

- Ishchi guruh bilan birgalikda mazkur toifa o'quvchilarining muzeylarga, madaniy obidalarga va teatrlarga sayohatlarini uyushtirish;

- pedagogik konfliktlarni bartaraf etish ishlarini maxsus daftarga qayd etib borish.

IV. Pedagogik konfliktlarni bartaraf etish natijalari tahlili.

- Ishchi guruh bilan birgalikda amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish;

- har bir o'quvchida bo'lgan ijobiy o'zgarishlarni baholash;

- tahlillar natijasini pedagogik xulosalash;

- amalga oshirilgan ishlar yakuni bo'yicha Ishchi guruh bilan birgalikda Xulosa tayyorlash.

Mazkur Dastur asosida Sinf rahbari boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni maqsadli bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Dastur asosida oylik, choraklik yoki yillik muddatlarda faoliyat olib borish mumkin. Buning natijasidan o'quvchilar, o'qituvchilar va maktab jamoasi hamda ota-onalar manfaatdor bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, Dasturni amalga oshirishda Sinf rahbari tashkil etish, boshqarish va yo'naltirish vazifasini bajaradi. Ishchi guruh, ota-onalar va maktab jamoasi ishtirokchi hamda yordamchi ishlarni amalga oshiradi.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning didaktik imkoniyatlari o'ziga xosligi bilan diqqatga sazovor.

Har bir jamiyatning, unda yashaydigan insonlarning taqdiri va kelajagi albatta davlatlarning yetakchi kuchlari hisoblanmish yoshlar tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Buyuk o'zbek xalqi qadim-qadimdan farzand, yoshlar ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib kelgan. Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati esa qadimdan ota-bobolarimiz tomonlaridan shakllanib kelgan asl milliy va diniy qadriyatlarimizni bugungi kundagi ahamiyati nechog'lik muhim ekanligini ko'rsatib bermoqda. Zero, hayotimizni mukammal ahloq tamoyillari asosida barpo qilish va albatta, ta'lim-tarbiya berib kelayotgan ertamiz ishonchi bo'lmish yosh avlodlarimizga bog'liqdir. Zotan mustaqil davlatimiz istiqboli uchun ma'naviyati yuksak, barkamol insonlar zarurdir.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev yoshlar tarbiyasi butun

millat oldidagi ulkan mas'uliyatli vazifa ekanligini ta'kidlab: **“Agar farzandimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo'lib turmasak, ularni ilmu hunarga o'rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo'yishimiz hech gap emas”**¹, deya takidlaydilar. Shunday ekan, so'nggi vaqtlarda zamonaviy jamiyatlardagi insonga bo'lgan turli ilmiy-texnik, ma'naviy, iqtisodiy ta'sirlarning haddan ziyod ortib borishi, zamonaviy jamiyatlarda yashash tarzining murakkablik tomon ortib borayotganligi odamlar to'qnash kelishi mumkin bo'lgan turli konfliktli vaziyatlarni ham oshirmoqda. Inson o'z hayotida bolalik davridanoq boshqa insonlar bilan turli ijtimoiy munosabatlarga kirishadi. Inson hayoti boshqalar bilan bo'ladigan turli munosabatlarning uzluksizligidan iborat bo'lgan jarayondir. Ana shu munosabatlar esa har doim ham bir tekis, silliq va tinch davom etavermaydi. Hayotning bir tekis davom etishini turli nizo va ziddiyatlar buzib turadi. Biz ularni konfliktlar deb ataymiz.

Konflikt har bir inson hayotiga aloqador bo'lgan o'ziga hos jarayon bo'lib, hech bir inson o'zini komil ishonch bilan konfliktli vaziyatlardan muhofaza qilinganman deb ayta olmaydi. Konfliktlar inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi, chunki har bir inson o'z hayoti davomida konfliktlar bilan to'qnash keladi. Konfliktlar tabiiy hodisa bo'lib, konflikt bilan to'g'ri munosabat o'rnatish inson tarbiyasi, uning shakllanishining zaruriy talablaridan biridir.

Aqlli odamlar ikki munozarachining fikriga ko'ra, aqlli bo'lgan odamni ayblashadi. Bu mojarolardan qochish kerak degani emas. O'z vaqtida hal etilmagan mojaro, shuningdek o'z vaqtida davolanmagan kasallik ma'lum vaqtdan keyin jiddiy asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin, shuning uchun ziddiyatlarni o'z vaqtida ochish, "kasallik" ning to'g'ri tashxisini qo'yish va "tuzalish" yo'llarini topish kerak. O'qituvchining o'rni, ayniqsa, pedagogik jarayon davomida "o'qituvchi-o'quvchi-ota-onalar" qarama-qarshi ucburchagi shakllangan hollarda juda katta hisoblanadi. Bunday holda, quyidagi ziddiyatli holatlar paydo bo'lishi mumkin:

- o'qituvchi, ota-onalar bilan birgalikda o'quvchiga qarshi harakat qiladi;

¹ Shavkat Mirziyoyev. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik. – T.: O'zbekiston, 2017- B 21

- ota-onalar o'quvchi va o'qituvchi bilan;
- o'quvchi bilan o'qituvchi - ota-onalarga qarshi;
- hamma narsa - barchaga va barchaga o'zi qarshi.

Agar nizo o'z vaqtida hal etilmasa, unda yangi ishtirokchilar, masalan, nizo hakamining o'rnini egallashi yoki tomonlardan birini qo'llab-quvvatlashi mumkin bo'lgan ta'lim muassasasi ma'muriyati jalb qilinishi mumkin, keyin mojarolarni rivojlantirishning mumkin bo'lgan holatlari soni sezilarli darajada oshadi.

Qarama-qarshilik rivojlanishining har qanday variantida o'qituvchining vazifasi - tomonlarning muxolifatini o'zaro ta'sirga, halokatli to'qnashuvni konstruktivga aylantirish.

Buning uchun bir qator ketma-ket usullarni bajarish kerak:
tajovuzga tajovuz bilan javob bermaslik;

- raqibni so'z yoki imo-ishora yoki ko'rinish bilan haqoratlamang va kamsitmang;

- raqibga gaplashish, uning da'volarini diqqat bilan tinglash imkoniyatini berish;

- raqib duch kelgan qiyinchiliklar munosabati bilan o'z tushunchangizni va qiyinligingizni bildirishga harakat qiling;

- shoshilinch xulosalar qilmang, shoshilinch maslahat bermang - vaziyat har doimgiday ko'rinishda bo'lganidan ko'ra murakkabroq;

- raqibingizni tinch muhitda duch kelgan muammolarni muhokama qilishga taklif qiling. Agar vaziyatlar imkon bersa, unda olingan ma'lumot haqida yaxshiroq o'ylab ko'rish uchun vaqt so'rang. To'xtab turish hissiy stressni yengillashtirishga ham yordam beradi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqotida nafaqat nutqning mazmuni, balki yuz ifodalari, ohang, nutq intonatsiyalari ham muhimdir, agar mutaxassislarning fikriga ko'ra kattalar bilan muloqotda intonatsiya 40% ma'lumotni o'z ichiga olsa, u holda, bola bilan aloqa qilganda, intonatsiya ta'siri kuchayadi. Bola intonatsiya orqali kattalarning unga bo'lgan munosabatini hayratlanarli darajada aniq biladi, u "hissiy eshitish" ga ega, nafaqat aytilgan so'zlarning mazmunini, ma'nosini, balki unga kattalarning munosabatini ham tushunadi.

Agar yuqoridagi harakatlar natijasida siz raqibingizni unga dushman emasligingizga va teng hamkorlikka tayyor ekanligingizga ishonтира olgan bo'lsangiz, unda nizoni hal qilishning keyingi bosqichiga o'tishingiz mumkin.

1. *Muloqot.* Buni ham maqsad, ham vosita sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Birinchi bosqichda dialog - bu raqiblar o'rtasida aloqani o'rnatish usuli. Ikkinchi bosqich - munozarali masalalarni muhokama qilish va nizoni hal qilishning o'zaro maqbul yo'llarini topish vositasi.

Barchamiz monologlarga, ayniqsa pedagogik jarayonga o'rganib qolganmiz. Ularning har biri o'z fikrini bildirishga intiladi, lekin ayni paytda, qoida tariqasida, boshqasini eshitmaydi. Muloqotda asosiy narsa nafaqat gapirish va tinglash, balki eshitishdir. O'qituvchi va o'quvchining mavqeini yaqinlashtirish, o'zaro tushunish ba'zi o'qituvchilar tomonidan foydalanilmaydigan ba'zi usullarga yordam beradi, ya'ni agar siz undan g'azablangan bo'lsangiz ham, o'quvchini ismi bilan atashga harakat qiling.

Muloqot paytida ba'zi qoidalarga rioya qilish muhim:

- raqibga nisbatan xushmuomalalik, to'g'ri munosabat. Bu "tengdoshlar" bilan suhbat bo'lishi kerak;

- keraksiz ravishda aralashmang, avval sodir bo'lgan voqeani biling, keyin gapiring;

- nuqtai nazarangizni buzmag, birgalikda haqiqatni izlang;

- o'z holatingizni himoya qiling, toifaga kirmang, o'zingizga qanday munosabat bildirishini biling;

- o'zingizning dalillaringizda mish-mishlar va boshqa odamlarning fikrlariga emas, balki dalillarga tayaning;

- savollarni to'g'ri berishga harakat qiling, ular haqiqatni izlashning asosiy kalitidir;

- Muammoni hal qilish uchun tayyor "retseptlar" ni bermang, mantiqiy mantiqni yaratishga harakat qiling, shunda raqib o'zi kerakli yechimlarni topishi kerak.

Muloqot paytida raqiblar bir-birlarining munosabatlari, holatlari, niyatlari, maqsadlarini aniqlaydilar. Ular ko'proq ma'lumotga ega bo'ladilar va hozirgi mojaroli vaziyatni yaxshiroq namoyish etadilar. Agar nizoning aniq manbalari va sabablarini aniqlash imkoni bo'lsa, biz mojarolarni hal qilishning yakuniy bosqichiga o'tamiz.

2. *O'zaro ta'sir o'tkazish.* Aslida, bu bosqich idrok qilishni ham, dialogni ham, qo'shma aloqa faoliyatining boshqa turlarini ham o'z ichiga oladi. Ammo bu yerda o'zaro ta'sirlashuv barcha raqiblarning mojaroni hal qilishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi.

Shunday qilib, mojaroni idrok etishning yetarliligi, muammolarni har tomonlama muhokama qilishga tayyorlik, o'zaro ishonch muhitini yaratish va mavjud muammolarni hal qilishda birgalikdagi sa'y-harakatlar buzg'unchi mojaroni konstruktivga, kechagi muxoliflarning xodimlarga aylanishiga yordam beradi. Bundan tashqari, muvaffaqiyatli hal qilingan nizo jamoadagi psixologik iqlimni yaxshilashga, o'zaro tushunishni rivojlantirishga yordam beradi. Mojarolarni hal qilish jarayonida to'plangan tajribadan boshqa ziddiyatli vaziyatlarda muvaffaqiyatli foydalanish mumkin.

Pedagogik ziddiyatlarning kelib chiqishini oldindan sezish mojaroli vaziyatning salbiy rivojlanishining oldini olishga va uni ijobiy holatga aylantirishga imkon beradi. Mojarolarni boshqarish va nizolarni hal etish texnologiyalarini yaxshi boshqarish o'qituvchilarga qarama-qarshi nizolarni yaratishga imkon beradi. Masalan, o'qituvchi o'quv guruhida akademik ko'rsatkichlar yoki intizom bo'yicha nizo keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan vaziyatda o'z bilimlarini mojaroli vaziyatni hal qilishga jalb qilib, ularning faoliyatini faollashtiradi va kerakli natijalarga erishadi.

Pedagogik mojarolar tabiiy ijtimoiy hodisa bo'lib, u o'qituvchining nizolarni boshqarish bo'yicha tayyorgarligi sustligi tufayli o'quv jarayonini tashkil etishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Biz mojarolar yuzaga kelganda hisobga olinishi kerak bo'lgan obyektiv va subyektiv sabablarni ko'rib chiqdik. O'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi ziddiyatlarning sabablarini turlicha aniqlayotgani aniqlandi. Yoki kichik maktab o'quvchilarining his-tuyg'ulari juda yorqin, ammo shu bilan birga ular tezda o'chiriladi, ammo o'qituvchining salbiy ta'siri doimo psixikaga ta'sir qiladi va ularning xotirasida qoladi. Bunday holatlarning bir nechta turlari mavjud: ular nafaqat o'quv jarayoni bilan, balki o'quvchilar bilan muloqot jarayonida o'qituvchining xulq-atvori bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Ayrim vaziyatlarga bog'liq holda, ziddiyatli vaziyatni ehtiyotkorlik bilan yarata olish juda muhimdir. Mojarolarni hal qilish jarayonida ergashish, mojaroning boshqa tomonini hurmat qilishni o'rganish uchun ijobiy namuna bo'lishi kerak - oxir oqibat, bolalar ongsiz ravishda kattalar ya'ni ota-onalar va o'qituvchilar xatti-harakatlaridan nusxa oladi. O'qituvchi, shuningdek, mojaroning tomonlarini xafa qilmasligi uchun mojaroni qanday hal qilishni o'rgatishi kerak, bu vaziyatda

faqat chinakam bilimli o'qituvchi insoniy qadriyatlarni biladigan va haqiqatan ham u uchun qadrlil bo'lgan haqiqiy insonni tarbiyalay oladi.

2.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning texnologik omillari

O'zbekiston Respublikasida barpo etilayotgan Uchinchi Renessans davrida barcha sohalar qatorida boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama barkamol voyaga yetkazish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida (2020 yil 29 dekabr) shunday deyiladi: "Yoshlarni zamonaviy bilim va tajriba, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz". Bu vazifaga e'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilariga zamonaviy bilim berish, ularni mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan shaxslar sifatida voyaga yetkazish muhim ahamiyatga ega. Aynan bilim va mustaqil fikrlash tarzini boshlang'ich sinflarda shakllantirish uchun ularda uchraydigan pedagogik konfliktlar ko'rinishlari, shakllari va turlarini bartaraf etish kerak bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning texnologik omillarini va unga asosan zamonaviy muayyan texnologiyani ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologik omillarini ishlab chiqishda metodika masalasiga maxsus yondashuvni taqozo etadi. **Metod** atamasi yunoncha bo'lib, ta'lim jarayonida taqdim etiladigan amaliy va nazariy bilimlarni egallash, o'zlashtirish, o'rgatish, o'rganish va bilish uchun xizmat qiladigan yo'l-yo'riqlar majmuini anglatadi. Biz tadqiqotimiz natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning quyidagi maqbul metodlariga asoslanish mumkin, degan fikrga keldik:

1. *O'rganish metodi.* Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning bu metodi mazkur muammoni maxsus o'rganish mazmuniga ega. Bizning yondashuvimizga ko'ra, Sinf rahbari maxsus tuzilgan Ishchi guruh a'zolari bilan birgalikda

boshlang'ich sinf o'quvchisida uchraydigan pedagogik konfliktlarni o'rganish uchun o'quvchilarning ruhiyati, bilimga qiziqishi, axloqiy hatti-harakati va o'zgalarga munosabatiga e'tibor berishi kerak. Har bir o'quvchi mana shu jihatlari bilan o'zidagi pedagogik konfliktlarning ko'rinishi, shakli yoki turini namoyon qiladi. Su sababli O'rganish metodi pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning poydevori hisoblanadi.

2. *Aniqlash metodi.* Bu metodga ko'ra, Sinf rahbari boshlang'ich sinf o'quvchisida mavjud bo'lgan pedagogik konfliktlarni tiplarga ajratishi kerak. Misol uchun, bizning tadqiqotlarimiz natijasiga ko'ra, hozirgi zamon boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxsidagi ziddiyatlar, o'rtoqlariga nisbatan munosabatidagi ziddiyatlar, ota-onasiga nisbatan inijqlik, xudbinlik, me'yorsiz erkalik kabi pedagogik konfliktlarning shakllari uchraydi. Su sababli Sinf rahbari boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni aniqlash jarayonida ularni tiplarga bo'lishi shart.

3. *Tushuntirish metodi.* Mazkur metodga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'rganilgan va aniqlangan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish ishiga kirishiladi, buning uchun Sinf rahbari maxsus tuzilgan Ishchi guruh va maktab jamoasiga ma'lumot bergan holda o'quvchining ota-onasiga tushuntirish beradi. Ota-ona o'z farzandidagi pedagogik konfliktlarning muayyan ko'rinishi, shakli yoki turi mavjudligidan xabardor bo'lishi, uni o'qituvchi tomonidan bartaraf etish zarurligini tushunishi kerak. SHu sababli pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning Tushuntirish metodi o'quvchi, Ishchi guruh, maktab jamoasi va otanalarni birgalikda harakat qilishga undovchi motivatsiya hisoblanadi.

4. *Baholash metodi.* Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning bu metodi o'rganilgan, aniqlangan va tushuntirilgan majmualar asosida amaliy ishlarni (tadbirlarni) amalga oshirishni ifodalaydi. Unga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchisida uchraydigan pedagogik konfliktlarning ko'rinishi, shakli va turining ko'lam baholanadi, bu baholash asosida ularni bartaraf etish choralari belgilanadi. Bizning yondashuvimizga binoan bu ish Sinf rahbari tomonidan amalga oshiriladi.

Zero boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning O'rganish, Aniqlash, Tushuntirish va Baholash metodlari ta'limiy, tarbiyaviy va amaliy xususiyatlarga ega-ligi bilan diqqatni tortadi. SHu sababli biz bu metodlarga tayanib

boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning ko'rinishi, shakli va turini kutilgan darajada bartaraf etish mumkin degan xulosaga keldik.

Ingliz pedagog olimi Kurt Tomasning (XX asr) "Konfliktlarni tartibga solishni baholash metodikasi" biz uchun maqbul bo'ldi.¹ Bu metodikaga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish asoslari mavjud. Bu o'rinda mazkur metodikani keltiramiz (berilgan javoblardan bittasi belgilanishi kerak):

1. a) Men ba'zida muammolarni hal etishda o'zgalarga imkoniyat beraman.

b) Muammolarni muhokama qilishda men hamkorim bilan keli-shuvchanlik tarafiga e'tibor beraman.

2. a) Men muammolarni hal etishda murosaga kelaman.

b) Men o'zgalarning ham manfaatini hisobga olaman.

3. a) Men o'z qarorimda turib olaman.

b) Ba'zida men o'zgalar manfaati uchun shaxsiy manfaatimdan voz kechaman.

4. a) Men har doim murosaga intilaman.

b) Men o'zgalar his-tuyg'usi bilan hisoblashmayman.

5. a) Konfliktli vaziyatlarda men o'zgalarning yordamiga tayanaman.

b) Men har doim muammolardan qochaman.

6. a) Men o'zim uchun noqulayliklardan qochaman.

b) Men har doim maqsadimga erishishga intilaman.

7. a) Men muammolarni yechishni keyinga qoldiraman.

b) Men nimagadir erishish uchun ba'zi narsalardan voz kechish kerak deb hisoblayman.

8. a) Odatda men o'z maqsadimga intilaman.

b) Men birinchi bo'lib muammo mohiyatini belgilashga intilaman.

9. a) O'ylaymanki har doim ham kelishmovchiliklarga e'tibor bermaslik kerak.

b) Men o'z maqsadimga yetishish uchun qat'iy intilaman.

10. a) Men o'z niyatimga erishish uchun harakat qilaman.

b) Men murosaga yo'liga intilaman.

11. a) Eng avvalo bahsning mohiyatini aniqlayman.

b) Men o'zgani tinchlantirishga intilaman.

¹ Bardovkaya N., Rean A. Pedagogika. –SPb.: "Piter". 2001. S. 288-290

12. a) Men bahsli vaziyatlar keltirib chiqaruvchi pozitsiyadan chekinaman.

b) Men o'zgalarga fikrini bayon qilish uchun imkon beraman.

13. a) Men xolislikni taklif etaman.

b) Men faqat mening manfaatimni ro'yobga chiqishiga intilaman.

14. a) Men o'zgalarga fikr-mulohazamni bildiraman va bu haqda ularning qarashlarini so'rayman.

b) Men o'zgalarga fikrimning mantiqli ekanligini bildirishga intilaman.

15. a) Men munosabatlarni saqlash uchun o'zgalar bilan kelishaman.

b) Men ziddiyatga tushmasliu uchun bor imkoniyatlarni ishga solaman.

16. a) Men atrofimdagilarning his-tuyg'usiga tegmaslikka harakt qilaman.

b) Men atrofimdagilarni men bilan hisoblashishga da'vat qilaman.

17. a) Odatda men o'z niyatimga intilaman.

b) Men hamisha keraksiz murakkabliklardan qochaman.

18. a) Agar atrofimdagilar baxtli bo'lishni istasa, men ularga imkoniyat beraman.

b) Hamkorimga o'z fikrida qolishi uchun imkon beraman.

19. a) Men bahsning mohiyatiga e'tibor beraman.

b) Men kelishmovchilikni hal qilishga intilaman.

20. a) Men har doim kelishmovchiliklarni hal qilishga intilaman.

b) Men hamkorimiz uchun ham yaxshi yechim topishgpa harakt qilaman.

21. a) Muzokara jarayonida hamkorimga e'tibor qilmaslikka harakat qilaman.

b) Men har doim muammoni to'g'ridan-to'g'ri muhokama qilishga intilaman.

22. a) Men o'zim va hamkorim uchun foydali qarorga intilaman.

b) Men o'z nuqtai nazarimda qat'iy turaman.

23. a) Qoidaga binoan men hammaning roziligiga harakat qilaman.

b) Ba'zida bahsli muammoni hal etishni o'zgalarga qoldiraman.

24. a) Agar o'zgalarning nuqtai nazari ma'qul bo'lsa men ularga qo'shilaman.

b) Men o'zgalarni murosaga kelishga ko'ndiraman.

25. a) Men o'zgalarni o'z nuqtai nazarimga ko'nikishiga da'vat

qilaman.

B) Men muzokara davomida o'zgalar diqqatini dalillarga qarataman.

26. a) Men odatda o'rta pozitsiyani egallayman.

b) Men odatda o'zgalarning manfaatlari bilan hisoblashaman.

27. a) Men bahslardan qochaman.

b) Men yetakchi shaxslarga yon bosaman.

28. a) Odatda men o'z tuqtai nazarimni o'tkazishga intilaman.

b) Men odatda o'zgalarning qo'llab-quvvatlashiga tayanaman.

29. a) Men o'rtacha pozitsiyani taklif etaman.

b) O'zgalarning turli fikrlarda bo'lishini o'ylayman.

30. a) O'zgalarning his-tuyg'ulariga tegmaslikka harakat qilaman.

b) Men o'zgalar bilan teng muvaffaqiyatga erishishga intilaman.

So'rovnomaning kaliti:

Birgalikda harakat: 3 a, 6 b, 8.a, 9 b, 10 a, 13 b, 14 b, 16 b, 17 a, 22 b, 25 a, 28 a.


Hamkorlik: 2 b, 5 a, 8 b, 11 a, 14 a, 19 a, 20 a, 21 b, 23 a, 26 b, 28 b, 30 b.

Murosasozlik: 2 a, 4 a, 7 b, 10 b, 12 b, 13 a, 18 b, 20 b, 22 a, 24 b, 26 a, 29 a.

Muammodan qochish: 1a, 5 b, 7 a, 9 a, 12 a, 15 b, 17 b, 19 b, 21 A. 23 b, 27 a, 29 b.

Moslashuvchanlik: 1 b, 3 b, 4 b, 6 a, 11 b, 15 a, 16 a, 18 a, 24 a, 25 b, 27 b, 30 a.

Mazkur metodikaga asosan boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish uchun zamonaviy innovatsion pedagogik *texnologiyalarga* asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. **Texnologiya** bu 1) shaxsni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonuniyatlarini mujassamlashtirgan hamda yakuniy natijani kafolatlaydigan pedagogik hodisa; 2) ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, uni boshqarish, pedagogik va o'quv faoliyatini tashkil qilish usullari majmuidir. Shu jihatdan texnologik yondashuv ta'limning aniq kutilgan natijalariga ega bo'lish jarayonini anglatadi. Mazkur yondashuv asosida biz yuqoridagi metodlarni amaliyotga tatbiq etish uchun zamonaviy **"Renessans"** nomli kompyuterli texnologiyasini ishlab chiqdik. Bu texnologiyaning tarhi quyidagicha:



2.3. 1-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning "Renessans" kompyuterli texnologiyasi

Mazkur kompyuterli texnologiyaning tavsifi quyidagilardan iborat: unga ko'ra, O'qituvchi (bizning yondashuvimizda Sinf rahbari) kompyuterda shakllantirilgan mazkur texnologiyaga asosan boshlang'ich sinf o'quvchisi yoki o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni ilmiy, pedagogik va amaliy jihatdan bartaraf etadi. Bunda:

M_1 - ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar majmui (qonun, Prezident farmonlar va qarorlari, davlat ta'lim standartlari va h.k.);

M_2 – konfliktologiya to‘g‘risida umumiy tushunchalar, ma’lumotlar va tushuntirishlar;

M_3 – pedagogik konfliktlar to‘g‘risida ma’lumotlar va ularning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uchraydigan ko‘rinishlari, shakllari hamda turlari;

M_4 – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktni bartaraf etish zaruriyati to‘g‘risida tushuntirishlar va yo‘naltirishlar;

M_5 – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha ko‘rsatmalar va tavsiyalar;

M_6 – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning didaktik imkoniyatlari tavsifi.

M_7 – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning maqbul metodlari.

M_8 – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish mezonlari;

M_9 – pedagogik konfliktlarga doir zaruriy pedagogik, psixologik va sotsial adabiyotlar, tegishli lug‘atlar.

Ushbu “Renessans” nomli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning ko‘rinishi, shakli yoki turini bartaraf etishning kompyuterli texnologiyasi quyidagi xususiyatlar va imkoniyatlarga ega.

birinchidan, mazkur kompyuterli texnologiya o‘qituvchi (bizning yondashuvimizga ko‘ra Sinf rahbari) tomonidan amaliyotga tatbiq etiladi va boshqariladi;

ikkinchidan, kompyuterli texnologiya Ma’lumotlar banki dasturi yangilab borish va boyitish imkoniyatlariga ega;

uchinchidan, bu kompyuterli texnologiya o‘qituvchi va o‘quvchini vizual bog‘laydi, kompyuter imkoniyatlaridan oqilona foydalanish imkonini beradi;

to‘rtinchidan, mazkur texnologiya vositasida masofaviy ta’lim tarzida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining pedagogik konfliktlarini bartaraf etish imkoniyati mavjud;

beshinchidan, ushbu kompyuterli texnologiya o‘quvchini qiziqtirish, tezkorligi va qulayligi bilan ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uchraydigan pedagogik konflikt-

larni ushbu “Renessans” nomli kompyuterli texnologiyada pedagogik konfliktlarni bartaraf etish *mezonlari* sifatida quyidagilarni belgiladik:

- a) pedagogik konfliktlarni bartaraf etish zarurligi;
- b) pedagogik konfliktlar shaxs rivojiga salbiy ta’sir etishini tushunish;
- v) pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning imkoniyatlari mavjudligi;
- g) pedagogik konfliktlar maxsus yondashish asosida bartaraf qilinishi;
- d) pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning samarasiga erishish mumkinligi.

Mazkur mezonlar biz tomonimizdan ishlab chiqilgan “Renessanm” nomli kompyuterli texnologiyani imkoniyatlaridan oqilona foydalanish va unda qayta-qayta murojaat qilish ko‘lami mavjudligi bilan innovatsion yondashuv hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning texnologik omillarini amaliyotga tadbiiq etishda mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu borada quyidagi imkoniyatlardan foydalanish kutilgan samarani beradi, degan fikrdamiz:

- boshlang‘ich sinflarning “Ona tili va o‘qish”, “Tarbiya” hamda “Tasviriy san’at” o‘quv fanlarini o‘qitish jarayonida o‘quvchilardagi pedagogik konfliktlar ko‘rinishlarini tashxislab borish ahamiyatga ega;

- tarbiyaviy tadbirlar yo‘nalishlarini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning shakllarini bartaraf etishga yo‘naltirish samarali hisoblanadi;

- yangi sharoitda Sinf rahbarining rejasi va faoliyatini tashkil etishda pedagogik konfliktlar muammosi bo‘yicha alohida vazifalarni belgilash maqsadga muvofiq bo‘ladi;

- umumta’lim maktablarining texnologik imkoniyatlaridan oqilona foydalanish bu boradagi muhim tayanchlardan biridir, chunki bugungi kunda maktablarimizning barchasi o‘quv-kompyuter vositalari bilan jihozlangan;

- shuningdek, hozirgi zamon o‘quvchisi mobil aloqa va kompyuter vositalaridan foydalaninsh imkoniyatlariga egaligi bilan qo‘yilgan masalaning ko‘lamini kengaytiradi.

Bizning yondashuvimizga ko‘ra, shakllantirilgan “Renessans” kompyuterli texnologiyasi murakkab sharoitlar va vaqtlarda masofadan turib boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining pedagogik konfliktlarini aniqlash,

o'rganish, tahlil qilish va ularni bartaraf etish imkonini beruvchi vizual vositadir. Shu sababli mazkur texnologiyadan foydalanish tavsiya etiladi.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning texnologik omillari o'ziga xos xususiyatlarga egaligi va keng imkoniyatlarga boyligi bilan ahamiyatlidir.

Yangi O'zbekiston sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarini aqliy, jismoniy va estetik jihatdan barkamol voyaga yetkazish uchun ularni turli konfliktologik vaziyatlar, holatlar va muhitdan muxofaza qilish muhim ahamiyatga ega. Bu borada ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning o'quvchi shaxsidagi ziddiyat, o'quvchining o'zgalarga munosabatidagi ziddiyat, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi ziddiyat, o'quvchi va ota-ona o'rtasidagi ziddiyat kabi ko'rinishlarini bartaraf etishning texnologiyasini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasini ishlab chiqish zaruriyati ijtimoiy, pedagogik va psixologik ehtiyojlar bilan belgilanadi. Chunki hozirgi zamon texnologik rivojlanish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarning har xil ko'rinishlari, shakllari va turlarini keltirib chiqaruvchi axborotlar ko'lami kengayib bormoqda. Bu hol ayniqsa, 7-11 yoshli o'quvchilarning texnik vositalardan mustaqil foydalanib axborot olayotganligi bilan o'ta muhim zaruriyat sifatida namoyon bo'lmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasining didaktik imkoniyatlari keng bo'lib, ulardan "Ona tili va o'qish", "Tarbiya" va "Tasviriy san'at" o'quv fanlari muhim ahamiyatga ega. mazkur fanlarni o'qitish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni aniqlash va bartaraf etishning didaktik imkoniyatlari juda yuqoriligi bilan muhim o'rin tutadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasining didaktik imkoniyatlarida tarbiyaviy tadbirlar va Sinf rahbarining faoliyati muhim tayanchlardan biridir. Shu jihatdan bizning yondashuvimizga ko'ra, yangi faoliyat asoslariga ega bo'lgan Sinf rahbarining roli muhimdir. SHu jihatdan Sinf rahbari boshlang'ich

sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni aniqlash, o'rganish va ularni bartaraf etish texnologiyasini tashkil etuvchi, boshqaruvchi hamda monitoringini olib boruvchi asosiy shaxsdir. Bu boradagi didaktik imkoniyatlardan unumli foydalanish aynan Sinf rahbarining faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning qulay va maqbul texnologik omiliga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda avvalo o'rganish, aniqlash, tushuntirish va baholash metodlari asosida texnologik omillarni shakllantirish muhimdir. Shu jihatdan biz boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning zamonoviy "Renessans" nomli kompyuterli texnologiyasini ishlab chiqdik.

Mazkur kompyuterli texnologiya o'zining pedagogik, psixologik, texnologik va didaktik imkoniyatlarga egaligi bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning muhim va maqbul vositalaridan biridir.

III BOB. BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA PEDAGOGIK KONFLIKTLARNI BARTARAF ETISH SAMARADORLIGI

3.1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari dasturi

O‘zbekistonda Uchinchi Renessansni barpo etish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bilimli, axloqli va faol shaxslari sifatida voyaga yetkazish muhim hisoblanadi. Bunda mazkur 7-11 yoshli shaxslarni pedagogik konfliktlar ko‘rinishlari, shakllari va turladidan asrash, bu muammoga tabiiy hodisa sifatida qarash hamda ular yuzaga kelganida bartaraf etish ishlarini amalga oshirish chuqur ahamiyatga ega. Shu sababli bu borada tadqiqotimizda amalga oshirilgan muammoning nazariy tahlillari hamda uni bartaraf etish uchun ishlab chiqilgan texnologik omillarini amaliyotga tadbqiq etish maqsadida pedagogik tajriba–sinov ishlarini o‘tkazish zaruriyat hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarda pedagog olimlarimiz tomonidan uzluksiz ta’lim muassasalarida pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va boshqarish jarayonining modeli ishlab chiqilgan. Misol uchun, pedagog olim R.Musurmonov boshchiligida ishlab chiqilgan quyidagi modelga e’tibor bering:

- 1) tahliliy;
- 2) tayyorlov;
- 3) tashxisli;
- 4) ta’limiy
- 5) yakuniy.¹

Bunda *tahliliy* pedagogik tajriba-sinov ishlari o‘quvchilarning (talabalarining) bilim, ko‘nikma va malakasini aniqlashga yo‘naltiriladi; *tayyorlov* pedagogik tajriba-sinov ishlarida ta’lim oluvchilarning keyingi bosqich ta’lim olishga tayyorgarlik darajasi aniqlanadi; *tashxis* pedagogik tajriba-sinov ishlarida ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish va

¹ Musurmonov R.,Shodmonova M.,Musurmonova N.,Rasuleva M. Uzluksiz ta’lim tizimida pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mexanizmlari.- T.: O‘zPFITI.2014. 101-bet.

tarbiyalanganlik darajasi o'rganiladi; *ta'limiy* pedagogik tajriba-sinov ishlarida ta'lim oluvchilarning o'quv fanlariga bo'lgan qiziqishlari va uning darajasi aniqlanadi; *yakuniy* pedagogik tajriba-sinov ishlarida esa ta'lim va tarbiyaning samaradorlik ko'rsatkichlari o'rganiladi. Biz mazkur modelning tadqiqotimiz xususiyatidan kelib chiqib, tayyorlov va ta'limiy shakllariga asosan pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazishni belgiladik.

Bunda tayyorlov pedagogik tajriba-sinov ishimizda boshlang'ich sinflarda uchraydigan pedagogik konfliktlarning turlari, shakllari va ko'rinishlarini aniqlash hamda amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ulardan xabardorlik darajasini o'rganishda qo'l keldi. Ta'limiy pedagogik tajriba-sinov ishimizda esa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari va amaliy faoliyatdagi o'qituvchilarning boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlardan xabardorlik darajasini oshirishda asos bo'ldi. Shu sababli bu ikki ko'rinishdagi pedagogik tajriba-sinov ishlarining shakli tadqiqotimizda ilgari surilgan nazariy g'oyalar, amaliy tavsiyalar va metodik tavsiyalarni sinovdan o'tkazish imkonini berdi.

Pedagogik ilmiy-tadqiqotlarda tajriba-sinov ishlarining quyidagi metodlari samarali bo'lishi ta'kidlangan:

- 1) kuzatish metodi;
- 2) suhbat metodi;
- 3) savol-javob metodi;
- 4) anketa metodi;
- 5) test metodi;
- 6) tahlil qilish metodi;
- 6) umumlashtirish metodi.¹

Biz tadqiqotimizda mazkur metodlardan foydalandik. Ayni paytda, pedagogik tajriba-sinov ishlarimizning asosini suhbat, anketa va test metodlari tashkil etganligini ta'kidlab o'tish joiz. Unda boshlang'ich sinf o'quvchilari, amaliy faoliyatdagi o'qituvchilar va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlar to'g'risida suhbatlashildi; maxsus anketa so'rovnoma ishlab chiqildi va u asosda test o'tkazildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarida ayniqsa, 7-11 yoshli o'quvchilarda

¹ Shu manba. 49-50-betlar.

uchraydigan pedagogik konfliktlarning turlari, shakllari va ko‘rinishlarini aniqlashga, ularni bartaraf etish yo‘llarini topishga asosiy e‘tibor qaratildi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining pedagogik tajriba-sinov ishlarida quyidagi xususiyatlari hisobga olindi:

- yosh xususiyati;
- jismoniy va aqliy imkoniyatlari;
- ruhiy va estetik shakllanish darajasi;
- bilim, ko‘nikma va malakasining shakllanganlik darajasi.

Mazkur yondashuvdan kelib chiqib pedagogik tajriba-sinov ishlarimizning Dasturi shakllantirildi. Ushbu o‘rinda tajriba-sinov ishlarining Dasturi loyahasiga e‘tiboringizni tortamiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari Dasturimizning tuzilishi quyidagicha:

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning nazariy asoslari. Bu bo‘limda tajriba-sinov ishlari ishtirokchilariga quyidagilar bo‘yicha tushuncha beriladi:

- konfliktologiya muammosi bo‘yicha umumiy tushuncha berish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni muhim pedagogik muammo sifatida idrok etish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasining nazariy masalalari bo‘yicha bilimga ega bo‘lish;
- pedagogik konfliktlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dunyoqarashi, bilimi, axloqi va his-tuyg‘ularining rivojlanishiga salbiy ta’sir etuvchi omillar ekanligini anglash.

2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasi. Mazkur bo‘limda tajriba-sinov ishtirokchilari quyidagilar bilan dastlabki tarzda tanishtiriladi:

- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasini ishlab chiqish zarur ekanligi;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasining didaktik imkoniyatlarini tushuntirish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning metodlari va texnologik vositasi to‘g‘risida ma’lumot berish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning zamonaviy “Renessans” nomli kompyuterli texnologiyasi

imkoniyatlarini o'rgatish.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bo'yicha tajriba-sinov ishlari va ularni o'tkazish tizimi. Ushbu bo'limda quyidagilarni amalga oshirish belgilangan:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bo'yicha tajriba-sinov ishlari ishtirokchilarini tanlash va jalb qilish;

- tajriba-sinov ishlarini suhbat, test va kuzatish metodlari asosida ikki bosqichda o'tkazish;

- tajriba-sinov ishlarining birinchi bosqichi natijalarini tahlil qilish va ular asosida ikkinchi bosqich tajriba-sinov ishlari vazifalarini belgilash;

- tajriba-sinov ishlarining ikkinchi-yakuniy bosqichini o'tkazish va tajriba-sinov ishlarining umumiy natijalarini tahlil etish. Mazkur Dastur asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish samaradorligi amalga oshirildi.

Ushbu dastur aprotatsiya nuqtai nazaridan biz tomonimizdan Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalariga "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi" fani bo'yicha o'qilgan ma'ruzalarda va amaliy seminarlarda qo'shimcha mavzu sifatida o'tildi. Buning natijasida bo'lajak o'qituvchilar pedagogik konfliktologiya asoslari va boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning ko'rinishlari, shakllari va turlari to'g'risida tushunchaga ega bo'lishdi. Shu sababli mazkur tajriba-sinov Dasturi negiziga quyidagilar singdirildi:

1. Pedagog-psixolog olimlarning fikricha, pedagogik konfliktlar uch bosqichda namoyon bo'ladi: 1) konfliktlarni paydo qiluvchi vaziyatlar; 2) konfliktlarni namoyon qiluvchi harakatlar; 3) konfliktlarni rivojlantiruvchi izchil muhit.¹ Biz mazkur konseptual yondashuvni qabul qildik va tapdqiqotimiz negizida boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlar dastlab vaziyat ta'sirida paydo bo'ladi, keyin konflikt paydo bo'lgan o'quvchi ziddiyatli harakatga keladi va nihoyat konfliktlar jarayoni izchil tus oladi. Ayni paytda, bizning yondashuvimizga ko'ra, pedagogik konfliktlar zamon va

¹ Psixologiya. Slovar.Sostavitel L.A.Korpenko. –M.:Politizdat.1990.S.174-175.

makonda paydo bo'lganligi uchun ularni bartaraf etish imkoniyati mavjud.

Shuningdek, olimlarning fikricha, ijobiy xarakterdagi konfliktlar ham idrok etiladi.¹ Bunday konfliktlar konstruktiv deb atalib, ko'p hollarda ular ongli tashkil etiladi. Misol uchun, O'qituvchi biror o'quvchini bilimga qiziqishi, axloqiy illatini yo'qotishi yoki uni faollashtirish uchun u bilan ongli ravishda konfliktga kirishadi. Bunday xarakterdagi konflikt turi kuzatishlarimizga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarini faollashtirishda muhim o'rin tutadi. Lekin pedagogik konfliktli vaziyatlarni tashkil etishda maqsadli va muddatli yondashish lozim.

2. Mazkur Dasturimizga singdirilgan ikkinchi bir tushuncha shundan iboratki, bizning yondashuvimizga binoan boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning uch *ko'rinishi* mavjud:

- a) ichki;
- b) tashqi;
- v) yashirin.

Ichki ko'rinish ko'p hollarda o'quvchilarning xarakterida namoyon bo'ladi, tashqi ko'rinish o'quvchilarning o'zgalarga munosabati va xatti-harakatida ko'rinadi, yashirin ko'rinishi esa o'quvchi to'monidan bildirilmaydigan konfliktidir. Shu sababli pedagogik konfliktlarning mana shu uch ko'rinishini hisobga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning quyidagi uch *shakli* kuzatiladi:

- a) ruhiy;
- b) axloqiy;
- v) xatti-harakatli.

Pedagogik konfliktlarning ruhiy shakli ko'p hollarda o'quvchining shaxsi va ongida kechadi, axloqiy shakli uning xulq-atvorida namoyon bo'ladi va xatti-harakatli shakli esa o'quvchilarning o'zgalarga munosabati hamda o'qishga bo'lgan intilishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning bu uch shakli pedagogik xarakterga ega bo'lib, ularni bartaraf etishda pedagogik, psixologik va sotsiologik qonuniyatlarning uyg'unligiga asoslanish kutilgan samarani beradi.

¹ Shu joyda.


Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning *turlari* ham uchta:

- a) ta'limiy;
- b) tarbiyaviy;
- v) amaliy.

Pedagogik konfliktlarning ta'limiy turi o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishining susayishi tusida namoyon bo'ladi, tarbiyaviy shakli esa o'quvchilarning fazilatlari yoki illatlarining namoyon bo'lishida ko'rinadi, amaliy shakli esa o'quvchilarning o'zini tutishi yoki guruh bilan kirisha olmasligida namoyon bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning mazkur turlarini aniq farqlash ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatadi.

3. Tajriba-sinov Dasturimizning navbatdagi negizi respondentlarni tanlash va ularni tiplarga bo'lish to'g'risidagi yondashuvlardan iborat. Unga ko'ra, tajriba-sinov ishtirokchilari maqsadli tanlanishi, ularni faollashtirish va yo'naltirish muhim masaladir. Bu yondashuvimizni amalga oshirish uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh, aqliy, jismoniy va estetik xususiyatlarini hisobga oldik. Shuningdek, Dasturni amalga oshirish yordamchilari bo'lgan Sinf rahbari va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik konfliktlardan xabardor bo'lishiga asosiy e'tibor qaratildi.

Mazkur tajriba-sinov ishlarini o'tkazish Dasturini biz tomonimizdan quyidagi modeli shakllantirildi:



3.1.1-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish modeli

Ushbu model asosida biz tajriba-sinov ishlarimizning amaliyotini aprotatsiyadan o'tkazdik.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bo'yicha tajriba-sinov ishlari Dasturi mazmuni ana shulardan iborat.

3.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini o'tkazish tizimi

O'zbekiston boshlang'ich ta'lim jarayonida Uchinchi Renessans davrining faol ishtirokchi shaxsini har tomonlama yetuk voyaga yetkazish ishlari amalga oshirilmoqda. Shu sababli tadqiqotimizning nazariy va amaliy xulosalarini tajriba-sinov ishlaridan o'tkazish, bunda o'ziga xos tizimni shakllantirishga e'tibor qaratildi. Tadqiqotimizning tajriba-sinov ishlarida respondentlar sifatida ishtirok etgan boshlang'ich sinf o'quvchilari quyidagi ikki guruhga bo'lindi:

birinchi guruh – tajriba guruhi;

ikkinchi guruh- nazorat guruhi.

Tajriba guruhida respondentlarning (boshlang'ich sinf o'quvchilarining) pedagogik ziddiyatlar va ularning omillaridan umumiy xabardorligi maxsus tuzilgan anketa Savolnomasi asosida o'rganildi. Bunda o'quvchilarning o'zligidagi ziddiyatlar, ularning bilim va tarbiya olish jarayonida duch keladigan to'siqlar aniqlandi. O'quvchilar anketa savollariga javob berishda o'z fikrlarini ochiq-oydin ifodalashga intildi. Ayni paytda, ularning tajriba guruhida ekanligi sir tutildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarimizning nazorat guruhi birinchi bosqich o'rganishdan keyin shakllantirildi. Unda pedagogik konfliktlar bo'yicha savollarga nisbatan to'g'ri javob bergan o'quvchilar kiritildi. Bunda quyidagi usulga asoslanildi:

- 1) savollarga to'g'ri javob bergan o'quvchilar;
- 2) savollarga qisman to'g'ri javob bergan o'quvchilar;
- 3) savollarga noto'g'ri javob bergan o'quvchilar.

Tabiiyki, nazorat guruhiga savollarga to'g'ri javob bergan o'quvchilar guruhi kiritildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazishda quyidagi tizimli ishlar amalga oshirildi:

- tajriba-sinov ishlarining anketa So‘rovnomasi tadqiqot muammosi bo‘yicha nazariy, amaliy va metodik jihatdan qat’iy tamoyillar asosida tuzildi;

- anketa savollari tadqiqotimiz ilmiy rahbari va tajribali metodist o‘qituvchilar nazaridan o‘tkazildi;

- test shaklida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarini o‘tkazishdan oldin tanlangan umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va rahbarlari bilan suhbatlashildi;

- mazkur ishtirokchilarning tavsiyasiga ko‘ra, tajriba-sinov ishlari o‘tkaziladigan boshlang‘ich sinflar tanlandi;

- So‘rovnomaning o‘tkazishdan oldin respondent o‘quvchilarga qisqacha tushuntirishlar berildi;

- So‘rovnoma o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarida erkin va ochiq tarzida o‘tkazildi;

- birinchi bosqichdan so‘ng olingan natijalar tahlil qilinib, So‘rovnoma takomillashtirildi;

- So‘rovnomaning nazariy jihatlarini aniqlashtirish maqsadida Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutining boshlang‘ich ta’lim talabalari o‘rtasida o‘tkazildi.

Bunday yondashuv asosida o‘tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarimiz kutilgan samarani berdi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish tizimini belgilab olishda quyidagi manbalarga tayanildi:

- pedagogik tajriba-sinov ishlari bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlarda tavsiya etilgan nazariy ko‘rsatmalar;

- pedagog olimlarning pedagogik tajriba-sinov ishlari bo‘yicha metodik tavsiyalari;

- ilmiy – tadqiqotlarda amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari bo‘yicha amaliy natijalar.

Bunday yondashuv tajriba-sinov ishlarini oqilona o‘tkazish va unda kutilgan samaraga erishish imkonini berdi.

Mazkur tizim xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari Dasturimizga binoan respondentlar sifatida Toshkent viloyati Chirchiq shahri 2, 25-maktablari, Jizzax viloyati Jizzax shahri 7, 9-maktablari va Navoiy viloyati Xatirchi tumani

17, 70- maktablarining 1-4-sinf o'quvchilari tanlandi. Tajriba-sinov ishlarida 500 nafar boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirok etdi.

2. Tajriba-sinov ishlarini o'tkazishda quyidagicha yo'l tutildi:

- maxsus test savolnomasi tuzildi;
- tajriba-sinov ishlari ishtirokchi o'quvchilari nazorat va kuzatuv guruhlariga bo'lindi;

- tajriba-sinov ishtirokchi o'quvchilariga test o'tkazish to'g'risida qisqacha tushuncha berildi;

- test sinovlari anonim tarzida o'tkazildi;

- testlarni tuzishda testologiyaning pedagogik-psixologik qonuniyatlariga amal qilindi;

- tajriba-sinov ishlarini o'tkazishda Sinf rahbarlari hamda "Ona tili va o'qish", "Tarbiya" va "Tasviriy san'at" o'qituvchilari yordamidan foydalanildi.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bo'yicha tajriba-sinov ishlari Dasturiga muvofiq tuzilgan test savollari quyidagilardan iborat:

1. Quyidagi javoblarning qaysi birida "Konflikt" so'zining ma'nosi to'g'ri berilgan?

A. Ziddiyat, nizo, to'qnashuv

B. Kelishuv, ziddiyat, to'qnashuv

V. Murosa, ziddiyat, to'qnashuv

G. Bilmayman.

2. Siz konfliktologiya atamasi to'g'risida eshitganmisiz?

A. Yo'q

B. Ha

3. Siz o'rtog'ingiz, o'qituvchingiz va ota-onangiz bilan kelisholmay qolsangiz uni nima deb ataysiz?

A. Fikringizni yozing: _____

4. "Pedagogik konfliktologiya" tushunchasi to'g'risida eshitganmisiz?

A. Fikringizni yozing: _____

5. Quyidagi javoblarning qaysi birida ta'lim va tarbiyaga oid konfliktlar turi aks etgan?

A. Sotsiologik.

B. Psixologik.

V. Pedagogik

G. Estetik

6. Siz o'zingizni o'rtog'ingiz bilan ba'zida konfliktga kirishadi deb hisoblaysizmi?

A. Yo'q

B. Ha.

V. Aytolmayman.

G. O'ylab ko'rmabman.

7. Ustozingiz konflikt to'g'risida gapirganmi?

A. Fikringizni yozing: _____

8. Siz o'rtog'ingiz xafa qilsa kechira olasizmi?

A. Fikringizni yozing: _____

9. Siz o'rtog'ingizni xafa qilsangiz undan kechirim so'raysizmi?

A. Yo'q

B. Ha

V. Aytolmayman

10. Sizni o'qituvchingiz xafa qilganmi?

A. Fikringizni yozing: _____

11. Siz otangiz yoki onangizdan xafa bo'lib turasizmi?

A. Ha

B. Yo'q

V. Aytolmayman

12. Odam kechirimli bo'lishi kerak deb hisoblaysizmi?

A. Fikringizni yozing: _____

13. O'qishda qiynalsangiz kimdan yordam so'raysiz?

A. Fikringizni yozing: _____

14. O'rtoqlaringiz orasida Siz yomon ko'radigan o'rtog'ingiz bormi?

A. Yo'q

B. Bor

V. Aytolmayman

15. Siz o'yinga qiziqasizmi?

A. Fikringizni yozing: _____

16. Siz o‘qishga juda qiziqasizmi?

A. Fikringizni yozing: _____

17. Siz qaysi fanlarga qiziqasiz?

A. Fikringizni yozing: _____

18. O‘rtoqlaringiz kelishmay qolsa ularni yarashtirib qo‘yasizmi?

A. Yo‘q.

B. Ha.

V. Aytolmayman

19. Siz kitob o‘qishga qiziqasizmi?

A. Fikringizni yozing: _____

20. Siz o‘z siringizni o‘qituvchingizga ayta olasizmi?

A. Fikringizni yozing: _____

21. Sizning sirdosh o‘rtog‘ingiz bormi?

A. Fikringizni yozing: _____

22. Sizga maktabdagi sharoit yoqadimi?

A. Ha.

B. Yo‘q.

V. Aytolmayman.

23. Siz o‘zingizni rostgo‘y deb hisoblaysizmi?

A. Fikringizni yozing: _____

24. Sizga maktabdagi qaysi sharoitlar yoqmaydi?

A. Fikringizni yozing: _____

25. Siz sinfingiz tadbirlarida ishtirok etasizmi?

A. Fikringizni yozing: _____

Mazkur savolnoma asosida dastlabki tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi va uning yakuniy bosqichida savolnoma takomillashtirilib, respondentlardan javoblar olindi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazishda quyidagicha yo'l tutildi:

Birinchi. So'rovnoma savollari aprobatseyadan o'tkazish uchun 2020 yil oktyabr oyida Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish yo'nalishi 2-kurs talabalari o'rtasida ijtimoiy o'rganish o'tkazildi (tahlili uchun dissertatsiyamizning 3.3-bandiga qarang). Mazkur o'rganishdan so'ng Savolnoma takomillashtirildi va viloyatlarning boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida dastlabki tarzda so'rovnoma o'tkazildi.

Ikkinchi. Mazkur so'rovnomaning dastlabki o'rganish bosqichi Navoiy viloyati Xatirchi tumanining 17 va 70-sonli maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida 2021 yil yanvar oyida o'tkazildi (tahlili uchun dissertatsiyamizning 3.3-bandiga qarang).

Uchinchi. Ushbu so'rovnomaning yanada takomillashtirilgan varianti asosida Toshkent viloyati Chirchiq shahri 2 va 25-sonli maktablar boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida 2021 yil yanvar oyida o'tkazildi (tahlili uchun dissertatsiyamizning 3.3-bandiga qarang).

To'rtinchi. So'rovnomaning dastlabki bosqichi yana Jizzax viloyati Jizzax shahrining 7 va 9-sonli maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida 2021 yil fevral oyida o'tkazildi (tahlili uchun dissertatsiyamizning 3.3-bandiga qarang).

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlar to'g'risida Sinf rahbarlari hamda "Ona tili va o'qish", "Tarbiya" va "Tasviriy san'at" fanlari o'qituvchilari bilan suhbatlar o'tkazildi. Ularga pedagogik konfliktlarning ko'rinishlari, shakllari va turlari to'g'risida axborot berildi. Sinf rahbarlari va o'qituvchilarning o'qishga qiziqmovchi hamda tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlash to'g'risidagi tajribalari o'rganildi. Bunda qoloq o'quvchilarda uchraydigan pedagogik konfliktlarni aniqlashga e'tibor qaratildi.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini o'tkazish tizimi shakllantirildi. Mazkur tizimni shakllantirishda quyidagilarga asosiy e'tibor qaratildi:

- maktab sharoiti va boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining faolligi o'rganildi;
- o'quvchilar uchun yaratilgan ta'limiy va tarbiyaviy sharoitlar bilan tanishildi;
- sinf rahbarlari hamda "Ona tili va o'qish", "Tarbiya", "Tasviriy

san'at" fanlari o'qituvchilarining bolalarga nisbatan munosabatlari kuzatildi;

- o'quvchilarning o'zini tutishi, o'qishga intilishi va axloqiy xatti-harakatlari o'rganib borildi;

- nisbatan qoloq hisoblanuvchi o'quvchilarning ota-onalari bilan suhbatlashildi va o'quvchilarning faolsizligiga sabab bo'luvchi konfliktli omillar aniqlandi;


- faol o'quvchilar bilan suhbat qilinib, sinfdoshlari o'rtasidagi munosabatlar holati tekshirildi;

- konfliktli vaziyatlarni yuzaga keltiruvchi muhitga e'tibor qaratildi.

Mazkur yondashuv asosida tadqiqotimizning tajriba-sinov ishlarini samarali o'tkazishga e'tibor qaratildi. Ta'kidlash lozimki, biz tanlagan tajriba-sinov ishlarimiz ishtirokchilari So'rovnoma va suhbatlarga qiziqish bilan munosabatda bo'lishdi.

Tajriba-sinov ishlarini o'tkazish jarayonida Sinf rahbarlari va o'qituvchilarning pedagogik konfliktlar masalasiga qiziqish bilan qaraganligi namoyon bo'ldi. Shu sababli bunday toifadagi muammolar izchil ravishda ilmiy tadqiq etib borilishi va ular asosida amaliy faoliyatdagi o'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish zarurligi aniqlandi.

Mazkur tajriba-sinov ishlarini quyidagicha tizimli shakli ishlab chiqildi:



3.2.1-rasm Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish tizimi

Biz tadqiqotimizning tajriba-sinov ishlarini ana shu tizim asosida o'tkazdik va uning amaliy samara berishi namoyon bo'ldi.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishda maqbul tizimga asoslanildi. Mazkur tizim asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning amaliy asoslari belgilandi va boshlang'ich sinf o'qituvchilariga taqdim etildi. Bunda "Ona tili va o'qish", "Tarbiya" hamda "Tasviriy san'at" o'quv fanlari o'qituvchilarining fikrlari o'rganildi va ularning fikr-mulohazalari asosida tajriba –sinov ishlari savolnomasi takomillashtirildi.

3.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bo'yicha tajriba-sinov natijalari

Tadqiqotimizning tajriba-sinov natijalari o'tkazilgan tashkiliy, tay-yorgarlik va metodik ishlarning samarasi o'laroq kutilgan natijani berdi. Buning uchun tajriba-sinov ishlari bir necha bosqichlarga bo'linib o'tkazilganini ta'kidlab o'tish joiz.

Birinchi bosqich natijalari

Dastlab tadqiqotimiz mazmunidan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining xabardorligini aniqlash maqsadida quyidagi So'rovnoma o'tkazildi.

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabalaridan onlayn tarzida o'tkazilgan dastlabki o'rganish tajriba-sinov ishlari tahlili quyidagi natijalarni berdi (2020 yil sentyabr).

Mazkur o'rganish bosqichida So'rovnomada 10 savol aks etdi. Ulardan 5 savolda ochiq javoblar olish belgilangan edi, so'rovnomada 28 talaba ishtirok etdi. Olingan natijalar savollar asosida quyidagicha bo'ldi:

Birinchi turkum – javoblari mavjud savollarga olingan javoblar:

1. Quyidagi javoblarning qaysi birida boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlar ko'rsatilgan?

Mazkur savolga 28 talabaning 11 tasi to'g'ri javob bergan, 9 tasi noto'g'ri javob bergan va qolgan 8 tasi ikkilanib javob bergan. Xulosa: talabalarning ko'pchiligi (11 tasi) boshlang'ich sinf o'quvchilarida

uchraydigan pedagogik konfliktlardan qisman xabardor.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni o'rganib borish kerakmi?

Ushbu savolga 28 talabani 24 tasi "Ha" deb javob bergan va 7 tasi ikkilanib javob belgilamagan. Xulosa: talabalarning nisbatan ko'pchiligi boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni o'rganib borish tarafdori va bu yondashuvni pedagogik ta'limning ta'siri sifatida qabul qilamiz.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni dars jarayonida bartaraf etish mumkin deb hisoblaysizmi?

Bu savolga 28 talabani 18 tasi "Ha" deb, 7 tasi "Yo'q" deb va qolgan 3 tasi "Bilmayman" deb javob bergan. Xulosa: birinchidan, talabalarning ko'pchiligi pedagogik konfliktlarni dars jarayonida bartaraf etish mumkin deb hisoblaydi; ikkinchidan, nisbatan talabalarning salmoqli qismi faqat dars jarayonida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish kamlik qiladi degan fikrda; uchinchidan, talabalarning ozchilik qismi mazkur muammo to'g'risida tasavvurga ega emas. Demak, faqat dars jarayonida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning imkoniyatlari cheklangan.

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni tarbiyaviy tadbirlar jarayonida bartaraf etish mumkinmi?

Mazkur savolga So'rovnoma ishtirok etgan 28 talabani 24 tasi "Ha" deb javob bergan, qolgan 4 tasi "Yo'q" deb fikr bildirgan. Xulosa: talabalarning 96 foizi boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni tarbiyaviy tadbirlar jarayonida bartaraf etish mumkin deb hisoblaydi. Demak, talabalar pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda dars jarayonidan ko'ra tarbiyaviy jarayonni ustuvor deb biladi. Bu hol talabalarning pedagogik konfliktlarning kelib chiqishi va oqibatlari faqat tarbiya masalasiga bog'liq deb hisoblashini ko'rsatadi. Bizningcha, talabalarning bu o'rinda yondashuvi dars jarayonining maqsad va vazifalari boshqaligini to'g'ri tushunishini aks ettirgan.

5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning kompyuterli texnologiyasini ishlab chiqish kerakmi?

Ushbu savolga respondent 28 talabani 15 tasi "Ha" deb, 10 tasi "Yo'q" deb va qolgan 3 tasi "Aytolmayman" deb javob bergan. Xulosa: birinchidan, talabalarning nisbatan ko'pchiligi pedagogik konfliktlarni

bartaraf etishda kompyuterli texnologiya imkoniyatlariga ishonadi; ikkinchidan, nisbatan yana bir qism ko'pchiligi bu borada kompyuterli texnologiya imkoniyatlarini cheklangan deb hisoblaydi; uchinchidan, talabalarning ozchilik qismi esa bu savol to'g'risida fikrga ega emas. Demak, talabalar pedagogik muammolarni hal etishda kompyuterli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini ikki xil baholashadi. Bunda biz talabalarning kompyuterli texnologiya imkoniyatlarining ijobiy va salbiy jihatlari to'g'risida fikrga egaligiga duch kelamiz.

Ikkinchi turkum – ochiq javoblar olish uchun tuzilgan savollarga olingan javoblar:

1. Konfliktlarning quyidagi xususiyatlarini bilasizmi?

Ushbu savolga 28 respondent talabalarning 13 tasi pedagogik xarakterdagi konfliktlardan xabardorligini bildirgan, 13 tasi ijtimoiy va iqtisodiy xarakterdagi konfliktlardan xabardorligini va qolgan 2 tasi umuman konfliktlar masalasidan ma'lumotga ega emasligini bildirgan. Xulosa: talabalarning 48 foizi pedagogik konfliktlar to'g'risida eshitgan, 48 foizi esa umumiy konfliktologiya haqida xabardor va qolgan 4 foizi konfliktlar muammosi to'g'risida tushunchaga ega emas. Demak, pedagogik konfliktlar muammosi bugungi kun talabarlari uchun nisbatan yangi yo'nalish hisoblanadi.

2. Siz boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni muhim muammo sifatida qabul qilasizmi?

Ushbu savolga 28 respondent talabaning 18 tasi "Ha, muhim muammo" deb javob bergan, 9 tasi "Yo'q, boshlang'ich sinf yosh bo'lgani uchun pedagogik konfliktlar muhim muammo emas" deb javob bergan va qolgan 1 tasi javob bermagan. Xulosa: birinchidan, talabalarning ko'pchiligi boshlang'ich sinflarda uchraydigan pedagogik konfliktlarni muhim muammo sifatida baholaydi; ikkinchidan, xuddi shuningdek ko'pchilik talabalar boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatiga bog'liq holda pedagogik konfliktlarni muhim muammo sifatida qabul qilmaydi. Demak, talabalarning boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning turlari, shakllari va ko'rinishlari bo'yicha xabardorligini oshirish taqozo etiladi.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasi to'g'risida eshitganmisiz?

Ushbu savolga 28 respondent talabaning 13 tasi "Eshitganman" deb, 14 tasi "Yo'q" deb javob bergan va qolgan 1 tasi javob bermagan. Xulosa:

talabalarining 51 foizi boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasidan xabardor emas, 49 foizi bu borada eshitgan va qolgan 1 foizi tasavvurga ega emas. Demak, boshlang'ich sinflarda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasi bo'yicha talabalarga yetarli darajada ma'lumot berish taqozo etiladi.

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning texnologik omillari to'g'risida eshitganmisiz?

Ushbu savolga 28 respondent talabalarining 11 tasi pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasidan xabardorligini, 14 tasi bexabar ekanligini va qolgan 3 tasi umuman tushunchaga ega emasligini bildirgan. Xulosa: talabalarining ko'pchiligi boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning texnologik omillaridan xabardor emas.

5. Sizningcha boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarga nimalar sabab bo'ladi?

Mazkur savolga 28 respondent talabalarining javobi quyidagicha bo'ldi:

- 11 talaba oiladagi muhit javobini;
- 9 talaba maktabdagi muhit javobini;
- 8 talaba bolalarning yoshiga xos xususiyat javobini bergan.

Xulosa: talabalarining ko'pchiligi (71.1foizi) boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarga sabab sifatida oila muhitini ko'rsatgan. Demak, boshlang'ich ta'lim jarayonida pedagogik konfliktlarning sabablarini yumshatish uchun oiladagi muhit xususiyatlariga alohida e'tibor berish lozim. Buning uchun oilalarning katta yoshli a'zolari bilan boshlang'ich sinf rahbarlari ta'lim va tarbiyaviy aloqadorlikda bo'lishi kerak.

Shundan keyin, 2020 yil oktyabr oyida o'tkazilgan *Birinchi bosqichda* tadqiqotimizning yuqorida 3.2.2-bandida ko'rsatilgan so'rovnoma asosida dastlabki test ishlari amalga oshirildi. Mazkur bosqichda amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarida Toshkent viloyati Chirchiq shahri 2 va 25-umumiy o'rta ta'lim maktablaridan 174 nafar o'quvchi, Jizzax viloyati Jizzax shahri 7 va 9-umumiy o'rta ta'lim maktablaridan 168 nafar o'quvchi hamda Navoiy viloyati Xatirchi tumanidagi 17 va 70-umumiy o'rta ta'lim maktablaridan 168 nafar o'quvchi, jami - 500 boshlang'ich sinf o'quvchilarining (respondentlarning) boshlang'ich

sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlardan xabardorlik darajasi o'rganildi.

Savolnomaga olingan javoblar tahlili quyidagi umumiy natijalarni berdi:

- boshlang'ich sinf o'quvchilari "pedagogik konfliktlar" tushunchasini ziddiyat, to'qnashuv va kelishmovchilik tushunchalari bilan ifodalaydi(81 foiz);

- boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'p hollarda tabiiy ravishda pedagogik konfliktlarning muayyan turlariga uchragan(86 foiz);

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarning o'z shaxsidagi ziddiyat va ota-onalari bilan ziddiyatlarga kirishish turlari nisbatan ko'proq mavjud(91 foiz);

- boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zligida kechayotgan ziddiyatli holatlarni oshkor etishmaydi(94 foiz);

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik ziddiyatlar turlari bilim olish va axloqiy shakllanish jarayonida yuzaga kelgan(85 foiz);

- boshlang'ich sinf o'quvchilari kelishmovchiliklar ko'rinishidagi pedagogik konfliktlarni tez unutadilar(92 foiz);

- boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z ongi, axloqi va xatti-harakatidagi murakkabliklar to'g'risida o'qituvchilarga juda kam murojaat qiladilar(71 foiz).

Ushbu dastlabki bosqichda boshlang'ich sinf rahbarlari va o'qituvchilari bilan pedagogik konfliktlar to'g'risida suhbatlashildi hamda uning umumiy natijasi quyidagicha bo'ldi:

- boshlang'ich sinf o'qituvchilari pedagogik konfliktlar to'g'risida umumiy tushunchaga ega va ular bu hodisani ko'p hollarda ziddiyat ma'nosida qabul qiladi(90 foiz);

- boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarda uchraydigan konfliktli holatlarni idrok etadilar(86 foiz);

- boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'quvchilarda uchraydigan pedagogik konfliktlar ko'rinishlari, shakllar va turlarini bartaraf etish malakasi yetishmaydi(84 foiz);

- mazkur muammolarning tarkib topishiga sabab sifatida oliy ta'lim muassasalarida va malaka oshirish kurslarida pedagogik konfliktlar bo'yicha tushuncha berilmasligi aniqlandi(95 foiz).

Tajriba-sinov ishlarining ushbu birinchi bosqichida olingan natijalar

dastlabki xulosalarni berdi. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari hamda o'qituvchilari ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogik konfliktlarga duch kelishadi, ularni idrok etishadi, biroq pedagogik konfliktlarni bartaraf etish ko'nikmasi yetishmaydi. Mazkur bosqich natijalaridan kelib chiqib, tajriba-sinov ishlarining ikkinchi bosqichini o'tkazish ishiga kirishildi.

2021 yil yanvar oyida o'tkazilgan *Ikkinchi bosqich* tajriba-sinov ishlarini o'tkazishda nisbatan takomillashtirilgan quyidagi anketa So'rovnoma asoslanildi va test shaklida o'tkazildi:

1. Konfliktlarning quyidagi xususiyatlarini bilasizmi?

A. Ijtimoiy konfliktlar

B. Iqtisodiy konfliktlar

V. Siyosiy konfliktlar

G. Fikringizni yozing _____

Olingan javoblar:

A. Tajriba guruhida:

Bu savolga 120 respondent o'quvchi to'g'ri javob bergan, 220 respondent o'quvchi qisman javob bergan va qolgan 160 respondent o'quvchi noto'g'ri javob bergan.

2. Quyidagi javoblarning qaysi birida boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlar ko'rsatilgan?

A. O'quvchi shaxsidagi ziddiyatlar

B. O'quvchining o'zgalarga munosabatidagi ziddiyatlar

V. O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi ziddiyatlar

G. Hammasi to'g'ri.

Mazkur savolga 125 respondent o'quvchi to'g'ri javob bergan, 120 respondent o'quvchi qisman to'g'ri javob bergan va qolgan 195 nafar respondent o'quvchi noto'g'ri javob bergan.

3. Siz boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni muhim muammo sifatida qabul qilasizmi?

A. Fikringizni yozing: _____

Mazkur savolga 130 respondent o'quvchi mustaqil javob bergan, 190 respondent o'quvchi qisman mustaqil javob bergan va qolgan 140 respondent o'quvchi javob bermagan.

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni o'rganib borish kerakmi?

A. Ha

B. Yo‘q

V. Bilmayman

G. Aytolmayman

Bu savolga 130 respondent o‘quvchi to‘g‘ri javob bergan, 210 respondent o‘quvchi qisman to‘g‘ri javob bergan qolgan 160 respondent o‘quvchi noto‘g‘ri javob bergan.

5. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasi to‘g‘risida eshitganmisiz?

A. Fikringizni yozing: _____

Mazkur savolga 110 respondent o‘quvchi mustaqil javob bergan, 230 respondent o‘quvchi qisman mustaqil javob bergan va qolgan 160 respondent o‘quvchi javob bermagan.

6. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni dars jarayonida bartaraf etish mumkin deb hisoblaysizmi?

A. Ha

B. Yo‘q

V. Bilmayman

G. Aytolmayman

Bu savolga 130 respondent o‘quvchi to‘g‘ri javob bergan, 220 respondent o‘quvchi qisman to‘g‘ri javob bergan va qolgan 150 respondent o‘quvchi noto‘g‘ri javob bergan.

7. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni tarbiyaviy tadbirlar jarayonida bartaraf etish mumkinmi?

A. Ha

B. Yo‘q

V. Bilmayman

G. Aytolmayman

Mazkur savolga 120 respondent o‘quvchi to‘g‘ri javob bergan, 320 respondent o‘quvchi qisman to‘g‘ri javob bergan va qolgan 60 respondent o‘quvchi noto‘g‘ri javob bergan.

8. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning texnologik omillari to‘g‘risida eshitganmisiz?

A. Fikringizni yozing: _____

Bu savolga 130 respondent o'quvchi mustaqil javob bergan, 240 respondent o'quvchi qisman mustaqil javob bergan va qolgan 130 respondent o'quvchi javob bermagan.

9. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning kompyuterli texnologiyasini ishlab chiqish kerakmi?

A. Ha

B. Yo'q

V. Bilmayman

G. Aytolmayman

Mazkur savolga 140 respondent o'quvchi to'g'ri javob bergan, 240 respondent o'quvchi qisman to'g'ri javob bergan va qolgan 120 respondent o'quvchi noto'g'ri javob bergan.

10. Sizningcha boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarga nimalar sabab bo'ladi?

A. Fikringizni yozing: _____

Bu savolga 125 respondent o'quvchi mustaqil javob bergan, 275 respondent o'quvchi qisman to'g'ri javob bergan va qolgan 160 respondent o'quvchi javob bermagan.

Mazkur javoblar natijalari foiz shaklida quyidagicha bo'ldi:

3.3.1-jadval

Tajriba guruhi

Savollar soni	To'g'ri javob	Qisman to'g'ri javob	Noto'g'ri javob
1	0.24 %	0.44 %	0.32 %
2	0.25 %	0.24 %	0.39 %
3	0.26 %	0.38 %	0.28 %
4	0.26 %	0.42 %	0.32 %
5	0.22 %	0.46 %	0.32 %
6	0.26 %	0.44 %	0.30 %
7	0.24 %	0.64 %	0.12 %
8	0.26 %	0.48 %	0.26 %
9	0.28 %	0.48 %	0.24 %
10	0.28 %	0.48 %	0.24 %
	2.55 %		

B.Nazorat guruhida:

1.Konfliktlarning quyidagi xususiyatlarini bilasizmi?

- A. Ijtimoiy konfliktlar
- B. Iqtisodiy konfliktlar
- V. Siyosiy konfliktlar
- G. Fikringizni yozing _____

Bu savolga 130 respondent o'quvchi to'g'ri javob bergan, 210 respondent o'quvchi qisman javob bergan va qolgan 160 respondent o'quvchi noto'g'ri javob bergan.

2.Quyidagi javoblarning qaysi birida boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlar ko'rsatilgan?

- A. O'quvchi shaxsidagi ziddiyatlar
- B. O'quvchining o'zgalarga munosabatidagi ziddiyatlar
- V. O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi ziddiyatlar
- G. Hammasi to'g'ri.

Mazkur savolga 140 respondent o'quvchi to'g'ri javob bergan, 120 respondent qisman to'g'ri javob bergan va qolgan 240 nafar respondent o'quvchi noto'g'ri javob bergan.

3. Siz boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni muhim muammo sifatida qabul qilasizmi?

- A. Fikringizni yozing: _____

Mazkur savolga 150 respondent o'quvchi mustaqil javob bergan, 190 respondent o'quvchi qisman mustaqil javob bergan va qolgan 160 respondent o'quvchi javob bermagan.

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni o'rganib borish kerakmi?

- A. Ha
- B. Yo'q
- V. Bilmayman
- G. Aytolmayman

Bu savolga 140 respondent o'quvchi to'g'ri javob bergan, 210 respondent o'quvchi qisman to'g'ri javob bergan qolgan 150 respondent o'quvchi noto'g'ri javob bergan.

5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasi to'g'risida eshitganmisiz?

A. Fikringizni yozing: _____

Mazkur savolga 120 respondent o'quvchi mustaqil javob bergan, 240 respondent o'quvchi qisman mustaqil javob bergan va qolgan 140 respondent o'quvchi javob bermagan.

6. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni dars jarayonida bartaraf etish mumkin deb hisoblaysizmi?

A. Ha

B. Yo'q

V. Bilmayman

G. Aytolmayman

Bu savolga 150 respondent o'quvchi to'g'ri javob bergan, 200 respondent o'quvchi qisman to'g'ri javob bergan va qolgan 150 respondent o'quvchi noto'g'ri javob bergan.

7. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni tarbiyaviy tadbirlar jarayonida bartaraf etish mumkinmi?

A. Ha

B. Yo'q

V. Bilmayman

G. Aytolmayman

Mazkur savolga 140 respondent o'quvchi to'g'ri javob bergan, 300 respondent o'quvchi qisman to'g'ri javob bergan va qolgan 60 respondent o'quvchi noto'g'ri javob bergan.

8. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning texnologik omillari to'g'risida eshitganmisiz?

A. Fikringizni yozing: _____

Bu savolga 150 respondent o'quvchi mustaqil javob bergan, 250 respondent o'quvchi qisman mustaqil javob bergan va qolgan 100 respondent o'quvchi javob bermagan.

9. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning kompyuterli texnologiyasini ishlab chiqish kerakmi?

A. Ha

B. Yo'q

V. Bilmayman

G. Aytolmayman

Mazkur savolga 145 respondent o'quvchi to'g'ri javob bergan, 245 respondent o'quvchi qisman to'g'ri javob bergan va qolgan 120 respondent o'quvchi noto'g'ri javob bergan.

10. Sizningcha boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarga nimalar sabab bo'ladi?

A. Fikringizni yozing: _____

Bu savolga 130 respondent o'quvchi mustaqil javob bergan, 280 respondent o'quvchi qisman to'g'ri javob bergan va qolgan 90 respondent o'quvchi javob bermagan.

Mazkur javoblar natijalari foiz tarzida quyidagicha bo'ldi:

3.3.2-jadval

Nazorat guruhi

Savollar soni	To'g'ri javob	Qisman to'g'ri javob	Noto'g'ri javob
1	0.26 %	0.42 %	0.32 %
2	0.28 %	0.24 %	0.48 %
3	0.30 %	0.38 %	0.32 %
4	0.28 %	0.42 %	0.30 %
5	0.24 %	0.48 %	0.28 %
6	0.30 %	0.40 %	0.30 %
7	0.28 %	0.60 %	0.12 %
8	0.30 %	0.50 %	0.20 %
9	0.29 %	0.49 %	0.24 %
10	0.26 %	0.56 %	0.18 %
	2.79 %		

Zero, tajriba va nazorat guruhlarida ishtirok etgan respondent o'quvchilarning javoblari farqli bo'ldi.

Tajriba guruhida 2.55 foiz

Nazorat guruhida 2.79 foiz

Shunday qilib tadqiqotimiz bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari kutilgan natijani berdi.

UMUMIY XULOSA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida “mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g‘oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo‘lgan, intellektual va ma’naviy salohiyatli yangi avlodni voyaga yetkazish” vazifasi qo‘yilgan. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasi muammosini tadqiq etish va bu borada maqbul texnologik omillarni ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Biz mazkur muammo bo‘yicha amalga oshirgan tadqiqotimizda quyidagi *umumiy xulosalarga* keldik:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida ta’lim tizimida Milliy o‘quv dasturini ishlab chiqish va unda boshlang‘ich ta’limni takomillashtirish vazifalari qo‘yilgan. Bu vazifalar ijrosi jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kelgusi ta’lim va hayotga tayyorlash masalalari hal etilishi kerak. SHu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning ko‘rinishlari, shakllari va turlarini aniqlash, ularni bartaraf etish muammolarini tadqiq etish dolzarb bo‘lib turibdi.

2. Pedagogik konfliktlar umumkonfliktologiya nazariyasining tarkibiy qismi bo‘lib, mazkur masala pedagogik tadqiqotchiligimizda kam o‘rganilgan. Bu masala bo‘yicha pedagogika fanlari nomzodi, dotsent M.T.Axmedovanning kontseptual yondashuvlari ishlab chiqilgan va biz ushbu yondashuvni rivojlantirish maqsadida konfliktologiyaning umumiy xususiyatlari masalasida manbalar va yondashuvlar tahlilini amalga oshirdik. Bu boradi biz konfliktlar tiplari sifatida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy konfliktlarni, ularning xususiyatlari deb pedagogik, sotsiologik va konfliktologik hamda konfdiktlnarning ta’sir ko‘lami tarzida ta’limiy, tarbiyaviy va moddiy jihatlarini hisobga oldik. Bizning yondashuvimizda lotincha *konflikt* atamasining o‘zbek pedagogikasida *ziddiyat* ko‘rinishi maqsadga muvofiq sifatida qabul qilindi.

3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bizning aniqlashimizcha, pedagogik konfliktlarning o‘quvchining o‘zligidagi ziddiyat, o‘quvchi

va o'qituvchi o'rtasidagi ziddiyat, o'quvchining o'z tengdoshlari bilan orasidagi ziddiyat, o'quvchining maktab jamoasi vakillari bilan ziddiyati hamda o'quvchining ota-onasi o'rtasidagi ziddiyatlar mudom ko'rinib turadi. Shu sababli, boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlar jismoniy, ruhiy va ma'naviy xususiyatlarga ega bo'ladi. Bunday konfliktlar muddatli ekanligi bilan xarakterlanadi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning ko'rinishlari, shakllari va turlarini monitoring tarzida o'rganib borish taqozo etiladi.

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning turlarini bartaraf etish yo'llari ishlab chiqilgan emas. Biz bu boradi SHarq va G'arb pedagogikasi tajribalariga asosan mo'tadil yo'lni ishlab chiqish maqsadga muvofiq, degan fikrga keldik. Misol uchun, biz mazkur masalada Amir Temurning "Tuzuklar" asarida bayon qilingan murosayu-madora (kompromis) metodi boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan konfliktlarni bartaraf etishning maqbul yo'llaridan biri sifatida qabul qilish mumkin deb hisoblaymiz. Unga ko'ra, har bir bolada uchraydigan pedagogik konfliktlar murosas va kelishuvchanlik yo'li bilan hal etiladi.

5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlar muammosi izchil o'rganib borilishi va ularning kelib chiqish sabablari, omillari hamda hal etish yo'llari izchil tadqiq etilishi maqsadga muvofiqdir. Bizning xulosaga kelishimizcha, 7-11 yoshli shaxslarda uchraydigan konfliktlarni bartaraf etishning ilmiy va maqbul modeli ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

6. Yangi O'zbekiston sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarini aqliy, jismoniy va estetik jihatdan barkamol voyaga yetkazish uchun ularni turli konfliktologik vaziyatlar, holatlar va muhitdan muxofaza qilish muhim ahamiyatga ega. Bu borada ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning o'quvchi shaxsidadagi ziddiyat, o'quvchining o'zgalarga munosabatidagi ziddiyat, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi ziddiyat, o'quvchi va ota-onasidagi ziddiyat kabi ko'rinishlarini bartaraf etishning texnologiyasini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

7. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasini ishlab chiqish zaruriyati ijtimoiy, pedagogik va psixologik ehtiyojlar bilan belgilanadi. Chunki

hozirgi zamon texnologik rivojlanish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarning har xil ko'rinishlari, shakllari va turlarini keltirib chiqaruvchi axborotlar ko'lami kengayib bormoqda. Bu hol ayniqsa, 7-11 yoshli o'quvchilarning texnik vositalardan mustaqil foydalanib axborot olayotganligi bilan o'ta muhim zaruriyat sifatida namoyon bo'lmoqda.

Boshlang'iya sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasining didaktik imkoniyatlari keng bo'lib, ulardan "Ona tili va o'qish", "Tarbiya" va "Tasviriy san'at" o'quv fanlari muhim ahamiyatga ega. mazkur fanlarni o'qitish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni aniqlash va bartaraf etishning didaktik imkoniyatlari juda yuqoriligi bilan muhim o'rin tutadi.

8. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasining didaktik imkoniyatlarida tarbiyaviy tadbirlar va Sinf rahbarining faoliyati muhim tayanchlardan biridir. Shu jihatdan bizning yondashuvimizga ko'ra, yangi faoliyat asoslariga ega bo'lgan Sinf rahbarining roli muhimdir. Shu jihatdan Sinf rahbari boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni aniqlash, o'rganish va ularni bartaraf etish texnologiyasini tashkil etuvchi, boshqaruvchi hamda monitoringini olib boruvchi asosiy shaxsdir. Bu boradagi didaktik imkoniyatlardan unumli foydalanish aynan Sinf rahbarining faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi.

9. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning qulay va maqbul texnologik omiliga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda avvalo o'rganish, aniqlash, tushuntirish va baholash metodlari asosida texnologik omillarni shakllantirish muhimdir. Shu jihatdan biz boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning zamonoviy "Renessans" nomli kompyuterli texnologiyasini ishlab chiqdik.

Mazkur kompyuterli texnologiya o'zining pedagogik, psixologik, texnologik va didaktik imkoniyatlarga egaligi bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning muhim va maqbul vositalaridan biridir.

1. Tadqiqotimiz bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari kutilgan natijani berdi. Unga ko'ra, tajriba-sinov ishlari ishtirokchilarining 55%i pedagogik konfliktlar bo'yicha tushuncha va bilimga ega bo'lishdi.

1. Tajriba-sinov ishlari yakunlari va tadqiqotimizning nazariy xulosalariga muvofiq “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi” fani pedagogik konfliktlar va ularni bartaraf etish texnologiyasi mavzulari bilan boyitildi, uning metodologik asoslari ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. Normativ – huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga ega nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //“Xalq so‘zi” gazetasi 2020 yil, 30 dekabr soni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan so‘zlagan Murojaat nutqi. //“Xalq so‘zi” gazetasi 2020 yil, 1 oktyarb soni.
3. O'zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020 yil 23 sentyabr). //“Xalq so‘zi” gazetasi 2020 yil, 24 sentyabr soni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi PQ-4623-sonli “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.//“Xalq so‘zi” gazetasi 2020 yil, 28 fevral soni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. //“Xalq so‘zi” gazetasi 2020 yil, 7 noyabr soni.

II. Ilmiy adabiyotlar

6. Abdullayeva B.S., Urazova M.B., Voxidova N.X. Obshaya pedagogika.-T:”Sano- standart”.2017.-364 s.
7. Axmedova M.T.Pedagogik konfliktologiya. -T.: TDPU. 2017. 320-bet.
8. Banikina S.V. Konflikt v sovremennoy shkole: izucheniye i upravleniye. -M.: Komkniga. 2006. -184 s.
9. Borodkin F.M., Koryak N.M. Vnimaneye: konflikt. -Novosibirsk.: “Nauka”, 1989. -189 s.
10. Gracheva V.I. Vvedeniye v pedagogicheskuyu konfliktologiyu. -M.: MGU. 2004. -98 s.
11. Yo‘ldoshev J.G‘. Ta’lim yangilanish yo‘lida. -T.: “O‘qituvchi”. 2000. 207-bet.
12. Jumayev.R., O‘tanov B. Konfliktologiya asoslari. -T.: “Akademiya” 2015. 114-bet.

13. Kanatayev Yu.A. Psixologiya konflikta. -M.: VAXZ. 1992. -79 s.
14. Karimjonov A., Ochilov F. Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya muammolari. -T.: "Firdavs-shoh". 2021. 205 b
15. Krogus N.V. Lichnost v konflikte. -Saratov.: SGU. 1976. -142 s.
16. Mavlonova R., Voxidova N., Raxmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. -T.: "Fan va texnologiya". 2010. 310 b.
17. Mardonov SH. Pedagogika fanidan o'qitishning elektron-modulli didaktik ta'minotini ishlab chiqish texnologiyasi. T.: "Ishonchli hamkor". 2021. 85 b
18. Maxkamov U. O'qituvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. -T.: "Fan". 1995. 200-bet.
19. Maxmudov Yu. Pedagogik tajriba va uni o'tkazish. -T.: O'zPFI-TI. 1993. 52-bet.
20. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. -T.: "O'qituvchi". 1996. 192-bet.
21. Musurmonov R., SHodmonova M., Musulmonova N., Rasuleva M. Uzduksiz ta'lim tizimida pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mexanizmlari. -T.: O'zPFITI. 2014. -160 b.
22. Muxammedov G., Xodjamqulov U. Pedagogik ta'lim innovation klasteri: ta'rif, tavsif, tasnif. -Chirchiq.: "Universitet". 2019. 90-bet.
23. Oleynik A.N. Osnovi konfliktologii. -M.: APO. 1992. -53 s.
24. Royak A.A. Psixologicheskiy konflikt i osobennosti individualnogo razvitiya rebenka. -M.: "Pedagogika". 1998. -118 s.
25. Ribakova M.M. Konflikty i vzaimodeystviye v pedagogicheskoy protsesse. -M.: "Prosvesheniye". 1991. -128 s.
26. Safo O. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. -T.: "O'qituvchi". 1995. 208-bet.
27. To'ychieva G., Asadova E. Yoshlar va konfliktlar yechimi. -T.: TDPU. 2003. 96-bet.
28. Quronov M. Milliy tarbiya. -T.: "Ma'naviyat". 2007. 208-bet.

III. Dissertatsiyalar va avtoreferatlar

29. Afonkova. V.M. Konflikty v korllktive starsheklassnikov i puti iz preodoleniya. Diss...kand.ped.nauk. -M., 1975. -201 s.
30. Grishina N.V. Psixologiya mejlichnostnogo konflikta. Diss...dok. psixol.nauk. -SPb., 1995. -318 s.

31. Zaprudskiy Yu.G. Sotsialniy konflikt (politologicheskiy analiz). Diss...dok.filos.nauk. -Rostov-na-Donu, 1992. -239 s.

32. Kirshbaum E.I. Psixologo-pedagogicheskiy analiz konfliktnix situatsiy v pedagogicheskom protsesse: Diss...kand.psixol.nauk. -L., 1986. -252 s.

33. Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari. Ped.dok.diss.avtoreferati. -Chirchiq. -2020. 58-bet.

IV. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

34. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. //To'la asarlar to'plami. 10-jild. -T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2011. 508-bet.

35. Amir Temur. Tuzuklar. -T.: "O'zbekiston". 2010. 102-bet.

36. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. -T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1991. 210-bet.

37. Boborahim Mashrab. Mehribonim qaydasan. -T.: "Yozuvchi". 1990. 501-bet.

38. Bordovkaya N., Rean A. Pedagogika. Uchebnik. -SPb.: "Piter". 2001. -384 s.

39. Jumanova F. va boshq. Umumiy pedagogika asoslari. O'quv-uslubiy qo'llanma. -T.: "Ishonchli hamkor". 2020. 582-bet.

40. Muhammad Boqir. Maqoti Xoja Naqshband. - T.: "Yozuvchi". 2003. 506-bet.

41. Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. -T.: "Yozuvchi". 2003. 510-bet.

42. Pedagogik atamalar lug'ati. R.Djurayev va boshq.- T.: "Fan". 2008. 101 b.

43. Pedagogik entsiklopedik lug'at. Ikki tomli. R.Djurayev, R.Safarova va boshq. -T.: "Fan". 2017. 408-bet.

44. Pedagogicheskiye naslediye. Teksti. -M.: "Pedagogika". 1990. -630 s.

45. Psixologiya. Slovar. Sostavitel L.A. Karpenko. -M.: "Politizdat". 1990. -494 s.

46. Xoja Axror Valiy. Tabarruk risolalar. -T.: Ibn Sino nashriyoti. 2004. 598-bet.

ZUHRA UMAROVA

**BOSHLANG‘ICH SINFI
O‘QUVCHILARIDA PEDAGOGIK
KONFLIKTLARNI BARTARAF ETISH**

Monografiya

Muharrir: X. Tahirov
Texnik muharrir: T. Raxmatullayev
Musahhih: N. Ismatova
Sahifalovchi: A. Muhammad

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.
Bosishga ruxsat etildi 27.05.2021 y.
Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. Ofset qog‘ozi. “Times New Roman”
garniturasida. Hisob-nashr tabog‘i. 4,5.
Adadi 100 dona. Buyurtma № 22.

«ZEBO PRINTS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha.